

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI AL-XORAZMIY
NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
CHET TILLARI FAKULTETI

SAPAROVA MOHIRA FAYZULLAEVNA

5120112–Filologiya va tillarni o‘qitish (ingliz tili) yo‘nalishi bakalavr darajasini olish uchun

yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

MAVZU: INGLIZ TILIDAN O‘ZBEK TILIGA BADIY TARJIMANING O‘ZIGA XOS
HUSUSIYATLARI (Uilyam Shekspirning “ROMEO VA JULYETTA” ASARI MISOLIDA)

Ilmiy rahbar:
katta o‘qituvchi. Saparboyeva G.M



Urganch-2015 yil

MUNDARIJA:

KIRISH.....	3-7
I BOB. TARJIMA SAN'ATI XUSUSAN BADIY TARJIMA HAQIDAGI BILIMLARNING NAZARIY	
ASOSLARI.....	8-25
I.1. Tarjima sana'ati va uning adabiy tilshunoslikda tutgan o'rni.....	8-10
I.2. Badiiy tarjima adabiy aloqa va o'zaro ta'sir vositasi sifatida.....	10-12
I.2.1. Uilyam Shekspir hamda uning "Romeo va Julyetta" asari to'g'risida....	12-14
I.2.2. Tarjima asarining mualliflari va o'zbek tiliga tarjimasi xususida.....	14-16
I.3. Ingliz va o'zbek tillaridagi badiiy tasvir va ifoda vositalarining turlari.....	16-25
II.BOB. QARDOSH BO'LMAGAN TILLARDA BADIY TARJIMANING IFODA VA USLUBIY VOSITALARI. "UILYAM SHEKSPIRNING "ROMEO VA JULYETTA" ASARINING BADIY TARJIMASI MISOLIDA)	26-43
II.1. Badiiy tarjimaning bilvosita ifodalanishi.....	27-30
II.2. Badiiy tarjimaning bevosita va bilvosita ifodalanishi.....	30-32
II.3. "Romeo va Julyetta" asarining badiiy tarjimasi va unda qo'llanilgan badiiy va stilistik ifoda va uslub vositalari tahlili.....	32-43
XULOSA.....	44-45
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	46-48

KIRISH

Adabiyot bu san'atdir. Asrlar davomida ming-minglab insonlarning qalbiga yo'l topa olgan badiiy asarlar, she'riyat namunalari, dostonlar, poesyalar va sahna asarlarini o'zida mujassam etgan jahon xalqlarining bebaho boyligidir, uni asrab avaylash, o'rganish, tegishli xulosalar chiqarish, ushbu tushunchalar asosida ma'naviyatimiz va dunyoqarashimizni shakllantirish biz yoshlarning vatanimiz oldidagi ham farzimiz, ham qarzimizdir.

Ushbu bitiruv malakaviy ishi avvalida yurtboshimizning "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida ushbu g'oyani ilgari surib quyidagi fikrlarni bayon qilganini eslatib o'tish o'rinlidir. "Agar biz O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo'lsak, avvalombor buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak. Nega deganda, ulug' adib Cho'lpon aytganidek, adabiyot yashasa-millat yashaydi." (1;139:140)

Shu mazmunda ushbu bitiruv malakaviy ishi ikki xalq adabiyotining buyuk vakillari bo'lmish U.Shekspir hamda Maqsud Shayxzoda ijodini stilistik tahlil qilib o'rganish orqali, tillararo muloqot va farqlarni tahlil qilib bordik. Shu o'rinda bir narsani ta'kidlash lozim, "Romeo va Julyetta" asarining biz tanlagan tarjima nusxasi Maxsud Shayxzoda qalamiga mansub bo'lib, shoir uni asarning rus tilidan tarjimasi orqali o'zbek tiliga qayta tarjima qilgan. Albatta ko'pchilik olimlar bevosita va bilvosita tarjima o'rtasidagi farq yuzasidan salbiy fikrlar bildirib bilvosita tarjimada asl matndagi mazmun to'liq saqlanmasligi undagi stilistik uslublar o'zining ma'nosini yo'qotishini aytib o'tadi. Ushbu tadqiqot borasida biz Shekspirning "Gamlet", "Otello", "Qirol Lir", "Qaysar qizning tiyilishi" asarlarining tarjimasi tahlillari sifatida bir qancha magistrlik va doktorlik dissertatsiyalar borligiga guvoh bo'ldik. Va bularning barchasida bilvosita tarjimaning samarasiz tarjima ekanligini isbotlashga urinishlar bo'lganligini

ko'rdik. Xususan, Maqsud Shayxzoda tomonidan amalga oshirilgan "Romeo va Julietta" asarining tarjimasida bu fikrlarga qarshi bo'lgan bir jihatning guvohi bo'ldik. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Shekspir asarining asl nusxasi bilan o'zbekcha tarjimasini qiyosiy tahlil qilib o'rganar ekanmiz, asl matndagi stilistik uslublar o'zbek tiliga ustamonlik bilan, milliy til xususiyatlariga monand ravishda tarjima qilinganligini ko'rib, tadqiqotchi tarjimadagi foydalanilgan uslublarga faqat tahsin aytishi mumkin. Ushbu ishdagi keltirilgan barcha misollar Shekspirning asl matni va Shayxzodaning tarjimasini to'g'ridan to'g'ri solishtirib boshqa tilning yordamisiz tahlil qilindi.

Mavzuning dolzarbligi. Ushbu bitiruv malakaviy ishi mavzusi tarjimashunoslik, jumladan badiiy tarjimaning ingliz va o'zbek tillaridagi ifodasi xususida bo'lib, bunda badiiy tarjimada ingliz va o'zbek tillaridagi ifoda vositalari va stilistik uslublarning badiiy adabiyotda qo'llanilishi masalalarini buyuk ingliz adibi Vilyam Shekspirning "Romeo va Julietta" asari misolida o'rganadi. Chet tilini o'rganishda ikkala til imkoniyatlaridan kelib chiqib, ular tarkibidagi milliy xos so'zlarning, turmush tushunchalarini ifodalovchi so'zlarning mavjudligi bilan belgilanadi. Har ikkala tilni qiyoslashda bu belgilar muhim ahamiyatga egadir. Bu masalaning dolzarbligi shundaki tarjima jarayonida bir tildagi til birliklarni ikkinchi bir tildagi teng qiymatli til birliklariga almashtirish yoki ikkinchi tildagi muqobil variantni berish zarur, aks holda tarjima g'alaz chiqishi mumkin. Biror asar tarjimasini milliy xos so'zlarsiz o'girish qiyindir, turmush tushunchalari ishtirok etgan asar yoki qo'llanmalarni tarjima qilish va ularni kitobxonlarga yetkazish jarayonida duch keladigan qiyinchiliklarni hisobga olsak, bu masalaning muhimligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Tarjima jarayonida leksik muammolarni o'rganish masalalari o'zbek tilshunosligi va tarjimashunosligi oldidagi muhim muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Shunga ko'ra biz o'z oldimizga quyidagi vazifalarini yoritishni maqsad qilib qo'ydik:

- Badiiy tarjimada qo'llaniladiga tarjimon transformatsiyalar va tarjima muammolari;
- tarjima jarayonida qo'llaniladigan vositalar va uslublar;
- tarjimonning aldoqchi do'stlari va ularning tarjimada berilishi;
- Bevosita va bilvosita tarjimaning qiyosiy tahlili
- stilistik uslublarning badiiy tarjimadagi ifodasi

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Mazkur ishda ilk bor o'zbek tarjimashunosligida bevosita va bilvosita tarjimaning ustunliklari talqin qilinib Uilyam Shekspir asari misolida badiiy tarjimada uslublarning saqlanishi va tarjimondan badiiy tarjimada talab qilinadigan bilim va ko'nikmalar hususida yaxlit bir tuchuncha shakllantirildi. Shuningdek, bevosita va bilvosita badiiy tarjima xususiyatlari o'rganilib, o'z navbatida bilvosita tarjima orqali qilingan tarjima matni asosiy matn bilan qiyoslab o'rganildi va tegishli xulosalar hosil qilindi.

Mavzuning nazariy ahamiyati yuqorida keltirilgan maqsadlardan kelib chiqadi. Bevosita tarjimani o'rganish tarjimashunoslikda olib borilayotgan tadqiqotlarga o'z natijasini o'tkazib tarjima jarayonida yuzaga keladigan tushumvochiliklarni bartaraf etishga yo'naltiriladi. Tarjimashunoslikda ushbu yo'nalishni tadqiq qilishning nazariy ahamiyati badiiy tarjimadagi olib borilayotgan bevosita va bilvosita tarjimalarni nazariy kurslarda tahlil qilinib kelajakdagi tarjimalarga ijobiy tomondan o'z samarasini o'tkazadi.

Mavzuning amaliy ahamiyati. Tanlangan mavzuning ilmiy xulosalardan, amaliy natijasidan, tarjima nazariyasi va amaliyoti kursini o'tishda, Shekspir asarlarini o'qib tushinishda qiynalgan talabalar uchun uslubiy tavsya sifatida foydalanish mumkin. Ushbu masala doirasida qilingan yangiliklar to'g'risida mulohaza yuritsak, izlanish ingliz va o'zbek tillaridagi badiiy tarjimaning kitobxonlarga muqobil variantlar asosida yetkazib berishda tarjimonning turli xil

yo'llari va tarjima jarayonida duch keladigan qator muammolarni o'z ichiga oladi.

Tadqiqot obyektlari. Tadqiqot obyektlari qilib, ingliz tilidagi "Romeo and Juliette" asari va Maqsud Shayxzoda tomonidan 1946 yilda qilingan tarjima matni, shuningdek o'zbek tarjimashunoslik maktabi izlanishlari natijasi bo'lgan tarjima tarixi va o'zbek badiiy tarjima asarlari, o'zbek tarjimonlarining ishlari olindi.

Tadqiqot metodlari. Ushbu dissertatsiya ishida qiyosiy-solishtirma, tasviriyl hamda semantik-uslubiy metodlari qo'llanildi. Shu bilan birga asliyat va tarjima tillari lisoniy vositalarini batafsil tahlil qilish zarurati lingvistik tadqiqotning boshqa ayrim maxsus metodlaridan ham, jumladan komponentlar tahlili metodidan foydalanishni taqozo etdi. Bir-birini to'ldirishga xizmat qiladigan mazkur metodlar amalga oshirilgan tarjimalarni har jihatdan puxta va xolis baholash imkoniyatini beradi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. O'zbekistonda badiiy tarjimaning taqqoslangan holda o'rganilganligi buyuk tarjimashunos olimlar G'.Salomov, N. Vladimirova ishlarida kuzatamiz. Mustaqillik davrlarida ingliz tilidan qilingan tarjimalar (1991-2011 yillar). Bu davrning o'ziga hos xususiyatlaridan biri bo'lib, jamiyatda bevosita amalga oshirilgan tarjimalarga ehtiyojning ortib borishi hisoblanadi. Bu kabi tarjimalarda endi mafkuradan holilik va asliyat matnini o'zgarishsiz kitobxonga obyektiv tarzda yetkazish muammosi ko'tariladi. Asta sekinlik bilan milliy tarjima maktabi jonlana boshlaydi.

Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar:

1. Tillararo muloqotning mohiyati va xususiyatlari o'rgangan holda shuni ta'kidlab o'tish lozimki tarjima badiiy ijodning eng mashaqqatli sohasi bo'lib, u kishidan bag'oyat katta bilim egasi bo'lishni taqozo etadi;

2. Shekspir tragediyalarining tarjimasi kasbiy mahoratining asosi sifatida doimiy ravishda tarjimashunos tadqiqotcholarni o'ziga jalb qilib kelgan, shuni inobatga olgan holda ushbu ingliz adabiyotini tarjima qilishni qiyinlashtiradigan

umumiy qiyinchiliklargakatta e'tibor qaratilgan bo'lib Shekspir tomonidan yozilgan asarlar tili yana bir muncha murakkabliklar yaratishi va uning boy leksikasida tilning hamma sathlari uchun xos bo'lgan stilistik hodisalar o'rin egallashi ta'kidlangan.

3. Badiiy matn tarjimasida badiiy tarjimaning mazmuni, xususiyati va asosiy shartlari haqida batafsil to'xtalib badiiy asarni tarjima qilish uchun tilning lug'at boyligi, chunonchi sinonim va omonimlar, dialektal, eskirgan so'zlar, erkalash va kichraytirish, qochiriq, matal va kinoyalarni hamda so'zlarning musiqiyliigi, ohangdorligini, tilning talaffuz normalarini, mubolag'a va kichraytirish xususiyatlari, yumor-hazil-mutoyiba formalarini bilish zarurligi ta'kidlangan;

4. Hech bir xalq adabiyotini boshqa adabiyotlardan ajratib olib, alohida o'rganish mumkin emas. Chunki jahon adabiyoti yagona bo'lib, u katta-kichik turli milliy adabiyotlarning o'zaro ta'siri rivojidan tarkib topadi. Kishilar yer yuzining turli mintaqalarida yashab kelishlaridan qat'iy nazar, yaratilgan ma'naviy boyliklarini o'zaro baham ko'rishga intilmoqdalar, bir-birlarining san'atidan, badiiy kashfiyotlaridan zavqlanib, qalban va ruhan yaqinlashib bormoqdalar.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, hajmi 47sahifani tashkil etadi.

BIRINCHI BOB. TARJIMA SAN'ATI XUSUSAN BADIY TARJIMA HAQIDAGI BILIMLARNING NAZARIY ASOSLARI

Tarjima – forscha «tarzabon» so'zidan arabiylashib o'zgargan. («tarzabon» - chiroyli so'zlovchi, notiq, tili burro kishi degan ma'noni anglatadi). Arab tiliga «tarjumon» shaklida o'tgan, undan «tarjima» yoki «tarjuma» hosil bo'lgan. O'zbek adiblari bunday tushunchani ag'darish, o'g'irish singari atamalar bilan ifoda etganlar.

Tarjima bu bir tildagi matnni boshqa tilda qayta yaratishdan iborat adabiy ijod turi bo'lib tarjima millatlararo muloqotning eng muhim ko'rinishidir. Asliyat va qayta tiklangan matn xususiyatiga qarab badiiy tarjima, ilmiy tarjima va boshqa turlarga ajratiladi. Asl nusxani aks ettirish tarziga ko'ra tafsir, tabdil, sharh kabi ko'rinishga ham ega bo'lishi mumkin. Tarjima qadimgi davrlarda, turli qabilaga mansub kishilar orasidagi o'zaro aloqa, muloqot ehtiyoji tufayli yuzaga kelgan. Tilmochlik deb ataladigan bu og'zaki turi hozirgacha ham saklanib kelgan va bu hozirgi davr tarjimonlar faoliyatida o'z aksini topadi.

1.1. Tarjima sana'ati va uning adabiy tilshunoslikda tutgan o'rni

Zamonlar osha tarjimaga bo'lgan talablar yangilana boradi. Ammo uning ijodiy xarakteri, qayta yaratish san'ati ekanligi o'zgarmaydi. Tarjimaning ko'lami va taraqqiyoti har bir xalqning ma'rifiy darajasiga bog'liq va, o'z navbatida, u millatning ijtimoiy tafakkuriga samarali ta'sir etadi. "Tarjima" termini bir tildan ikkinchi tilga o'g'irish jarayonini, shuningdek, tayyor tarjima asarini anglatadi. Badiiy tarjimaning asosiy xususiyati tilning badiiy vazifasidan kelib chiqadi. Til badiiy asarda estetik hodisa, san'at faktiga aylanadi. Adabiy asar tili — aloxida "badiiy voqelik" unsuridir. Tarjimada ana shu obrazli ifodaviy tildagi badiiy

ma'noni boshqa tilning obrazli ifodaviy zaminiga o'tkazish, obrazni obraz bilan qayta ifodalash jarayoni yuz beradi. Shuning uchun tarjimon asardagi voqealarning badiiy tafakkur jarayonini yangidan idrok etadi. Zamonaviy tarjima talablariga asosan tarjimon asliyatning san'at asari sifatida shakl va mazmun birligini qayta yaratishi, milliy va individual xususiyatlarini saklashi lozim. Tarjimon ona tilining rivojlanish darajasi, tarjimachilik an'analari, tajribalariga suyanadi, turli xil tafovutlarning mavjudligini hisobga oladi. Tarjimonning ijodiy qobiliyati va bilimi uning imkoniyatlarini kengaytiradi. Tarjima jarayonida tarjimon hammavaqt o'z ona tilida fikrlaydi, ona tili unga tahlil quroli, sinov mezonini bo'lib xizmat qiladi.

Tarjima nusxa ko'chirish kabi bir ish bo'lmay, ijodiy jarayon ekanini, tarjimon esa boldan holva pishiruvchi mohir yozuvchi bo'lishi kerakligini aytadi. Turli davrlarda muayyan hududdagi adabiy muhit, ayniqsa, maxsus tarjima maktablarining yuzaga kelganligining o'ziyoq uning shakllangan tamoyillari, an'analari bo'lganligini ko'rsatadi.

O'z, davrda har bir taraqqiy etgan xalq jahondagi yuzlab xalqlar tilidan o'z ona tiliga ilmfan va madaniyatning o'nlab sohalariga oid materiallarni (lirik she'rlar, xabarlar, texnologiya adabiyoti va b.) tarjima qiladi.

Tarjima bu nusxa ko'chirish emas; balki tarjimonning estetik ehtiyoji uning ixtiyoridan tashqari, tarjimada iz qoldiradi. Yozuvchi hayot voqealaridan olgan mushohadalarini tilda badiiy ifodalasa, tarjimon asliyat matnini yangi til vositasida qayta gavdalantiradi. Buning uchun u asarda tilga olingan voqelikning muallif darajasida puxta bilishi kerak. Har bir xalq adabiyotining rivojlanishida Tarjimachilikning ta'siri katta bo'ladi, zero tarjima tarixi adabiyot tarixi bilan tengdosh. O'zbek adabiyotida ham tarjimachilik qadimdan rivojlangan. Mahmud Koshg'ariy, Rabg'uziy, Qutb, Navoiy, Bobur, Munis, Ogahiy va boshqalar ijodida tarjimashunoslik katta o'rin egallaydi.

20-asr o'zbek yozuvchilaridan Cho'lpon, G'afur G'ulom, Oybek, Abdulla Qahhor, Mirtemir, Shayxzoda, Mirzakalon Ismoilov, Askad Muxtor, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Muhammad Ali va b. badiiy tarjimashunoslik sohasida

ham samarali ijod qilganlar. Badiiy tarjimas sohasida M. Osim, N. Alimuhamedov, Sh. Shomuhamedov, K. Qaxdorova, O. Sharopov, Sh. Tolipov, V. Ro'zimatov, Q. Mirmuhamedov, A. Rashidov, M. Hakimov, I. G'afurov, M. Mirzoidov, g'. To'rabekov, T. Alimov va b. professional tarjimon sifatida tanilganlar. O'zbek tilida ilmiy-texnikaviy, ijtimoiysiyosiy adabiyotlar Tarjimachiligida ham katta yutuqlarga erishilgan. Bunda R. Abduraxdyunov, V. Rahimov, A. Shomahmudov, 3. Tincherova kabi tarjimonlarning hissasi katta. Tarjima amaliyotini, uning o'ziga xosliklarini, tarixini, tamoyillari, prinsip va qonuniyatlarini tarjimashunoslik fani o'rganadi, tarjimonga o'g'irish uchun asar tanlash, tillararo tafovutlar hamda asliyatga xos boshqa xususiyatlarni, milliyadabiy an'analarni hisobga olgan holda ish tutishda yordam beradi. 20-asr O'zbek adabiyotida tarjimashunoslik maxsus fan tarmog'i sifatida yuzaga keldi va shakllandi. Cho'lpon, Sanjar Siddiq kabi mohir tarjimonlar nafaqat bu davr tarjima adabiyotini, ayni paytda tarjimashunoslik ilmini ham boshlab berganlar, tarjima haqida maqola va risolalar bitganlar.

O'zbek tarjimashunosligi maxsus ilm sifatida o'tgan asrning 2-yarmidan shakllandi. Asr oxiriga kelib, bu sohada 10 ga yaqin fan doktori, 50 dan ortiq fan nomzodi yetishib chiqdi. Prof. J. Sharipov tadqiqotlari asosan adabiyotimiz tarixida tarjimaning o'rnini ko'rsatishga bag'ishlangan bo'lsa, prof. G'. Salomov asosan zamonaviy tarjimashunoslik masalalari bilan shug'ullandi, tarjima jarayoniga til hamda adabiy an'analarning ta'sirini ko'rsatib berdi. N. Komilov esa mumtoz janrlarning o'tmish va hozirdagi tarjimalarini tadqiq etdi. O'zbek tarjimashunosligi asosan adabiy yo'nalishda taraqqiy etgan. Tarjimaning lisoniy jihatlari keyinroq — o'zbek tiliga ko'pgina xorijiy tillardan bevosita o'g'irishga yo'l ochilganidan so'ng rivojlana boshladi.

(9;19)

I.2. Badiiy tarjima adabiy aloqa va o'zaro ta'sir vositasi sifatida

Tarjima adabiy aloqa va o'zaro ta'sirning eng faol, eng ommalashgan va eng mahsuldor formasidir. "Tarjima do'stlik ilmidir, tarjima uzoqni yaqin qiladi, tarjima o'zgani birodar, tanishni qadrdon, do'stni qarindosh qiladi". Ayni paytda,

tarjima – san`at. San`atning oddiy turlaridan emas. Tarjima sehrgarlik san`atidir. Tarjima ijod ahli uchun darsxonasi keng bo`lgan “adabiy tahsil, mahorat maktabidir”. Shuning uchun jahon adabiyoti tarixida, uning boyishi, yangi-yangi asarlar evaziga mazmundor bo`lishida tarjima va tarjimonlarning ulushi benihoya salmoqli.

Ko`ngillar aro ko`prik vazifasini o`tayotgan tarjima – adabiy aloqa va o`zaro ta`sir tarixida ham nurli sahifalarini tashkil etadi. Necha yuz yillar davomida tarjima tufayli bir adabiyotda paydo bo`lgan asar jahon kezadi, million-million qalblarga shavqu surur, estetik zavq bag`ishlaydi, ma`naviy oziq beradi, ajoyib va original asarlarning bunyodga kelishida ijobiy hissa qo`shadi. Hofiz va Sa`diy, Jomiy va Navoiy she`riyati bilan G`arbni, Shekspir va Bal`zak, Dante va Gyotening mo`jizakor asarlari bilan Sharq kitobxonlarini ham oshno etgan, ular qalbida junbish uyg`otgan, badiiy so`z san`atining qudrat va quvvatini namoyish etgan ham ana o`sha tarjimadir.

So`nngi yillar ichida O`zbekistonda tarjima nazaryasi va amaliyoti rivojlandi. Jahon adabiyotining shoh asarlarini o`zbek tiliga va aksincha o`zbek adabiyotining shoh asarlarini boshqa tillarga tarjima qilish an`anasi, ko`plab tilshunoslarni va tarjimonlarni tarjima nazaryasi bilan jiddiy shug`ullanishga chorladi. O`zbek tarjimonligi sohasidagi mazkur shart sharoitlar yanada oldinga odimlashga chorlayapti. Bunda chet tili asarlarini o`zbek tiliga to`g`ridan-to`g`ri tarjima qilish ko`zda tutilmoqda. Badiiy tarjima san`ati asosi mazmun va shaklning yaxlitligini saqlash asl va nusxa ruhini to`la yetkazish bilan chambarchas bog`liqdir. Tarjimon asl nusxaning mazmun va shaklning badiiy estetik butunligini tiklashga erishishi kerak.

“Kontekst” har safar so`zning mohiyatini aniqlashtirishda uning atrofida boshqa birliklarini mavjud qilishda muhim ahamiyat kasb yetadi. Asl nusxaga bo`lgan e`tiborsizlik va rus tiliga bog`lanib qolish so`zma so`z tarjimaga olib keladi. Masalan, O.Genrining “Qirtishlangan bo`ri” asaridagi “squel-squel to the police” rus tilida “karaul polisiya” undov so`zi bilan almashtirilib mos tarjimaga erishiladi. Lekin o`zbek tilida “karaul” so`zi tarjimon orqali boshqa ma`noda

ko'rsatilishi so'z asl mohiyatining yo'qolishiga olib keladi: "If he get the money, you can squeal to the police". // "Если ему удастся заполучит твои денежки, ты вопиш: караул, полиция // "Basharti u Sening pullaringni olib qo'yishga muyassar bo'lsa, darrov: - Qorovul! Politsiya, - deb baqirasan!"

Bu misolda rus tilida berilayotgan "караул" so'zi o'zbek tarjimoni tomonidan noto'g'ri talqin qilinishi natijasida, "qorovul, qo'riqchi" kabi ma'no ko'chishi sodir bo'lmoqda. Aslida rus tilida bu so'z undov so'zga aylanib ketgan bo'lib, biror baloga uchragan odam xavf-xatarni sezgan vaqti ushbu iborani boshqa odamlarning e'tiborini tortib, yordamga chaqirish uchun qo'llaniladi. Shuning uchun ham, o'zbek tiliga bu so'zni "Voy dod! dod!" deb tarjima qilish maqsadga muvofiqroq bo'lardi. Tarjimon har doim kontekst ma'noning tarjimada aks ettirilishini inobatga olishi kerak.

Yoki shu kabi tushunmovchilikka sabab bo'ladigan boshqa bir tarjimani ham misol qilib ko'rsatish mumkin:

And that afternoon Sue came to the bed where Johnsy lay, contentedly knitting a very blue and very useless woolen shoulder scarf. // В тот же вечер Сю подошла к кровати где лежала Джонси, с удовольствием довязывая ярко-синий, совершенно бесполезный шарф. // Jonsi hozir unga mutlaqo kerak bo'lmagan, och-havo rang sharfni zo'r havsala bilan bo'yniga bog'lamoqda edi.

Tarjimadan shu narsa ma'lum bo'lmoqdaki, tarjimon asarning asliyat nusxasini ochib ham qarab ko'rmaganining natijasida O.Genrining "So'nggi yaproq" deb nomlangan hikoyasining qahramoni Jonsi, nima uchundir keraksiz bir sharfni bo'yniga **bog'lash** bilan ovora bo'lib qoladi. Aslida esa, Jonsi bu sharfni bog'lash emas, to'qish bilan mashg'ul bo'lgan edi, asliyat matnidan behabar tarjimon yesa, bunga e'tibor bermasdan, rus tilidagi "vyazat" so'zini "to'qimoq" yemas, "bog'lamoq" deya tarjima qilib qo'yadi.

I.2.1. Uiliam Shekspir hamda uning "Romeo va Julyetta" asari to'g'risida

Shu o'rinda bevosita ilmiy ishning amali asosini tashkil qiladigan "Romeo va Julyetta" asarining muallifi, buyuk ingliz dramaturgi, shoiri va yozuvchisi

Shekspir haqida va uning ijodiga o'zbek tarjima adabiyotidagi munosabat to'g'risida to'xtalib o'tsak. Shekspirning adabiy merosi she'riyat va dramaturgiya asarlaridan iborat. U yoshlik yillarida mifologik syujet asosida yozgan „Venera va adonis“ (1593) hamda rim tarixiga oid „Lukretsiya“ (1594) dostonlari samimiy kutib olingan. bu asarlar, ayniqsa, 1592—1600-yillarda yozilgan „Sonetlar“ Shekspirning uyg'onish davri madaniyati bilan uzviy aloqada maydonga kelganini ko'rsatdi. jahon lirikasining buyuk namunalari qatoridan o'rin olgan shekspir sonetlari mavzu jihatidan 2 guruhga ajraladi: dastlabki 126 sonet shoirning yaqin do'stiga bag'ishlangan bo'lsa, 127—152-sonetlarda lirik qahramonning bevafoqlik qilgan mahbubaga nisbatan muhabbat tuyg'usi va iztiroblari tasvir etilgan. shekspir yana bir necha dostonlar ham yozgan bo'lsada, ularning muallifi masalasi hamon bahslidir.

Shekspir asarlarining nashr sanalari ularning na yozilgan va na sahnaga qo'yilgan vaqtiga to'g'ri keladi. Shekspir bir necha qismdan iborat asarlarining avval 2—3-qismlarini, keyin 1-qismini yozgan paytlar ham bo'lgan. Shuning uchun adabiyotshunoslar Shekspirning dramaturgik ijodini 4 davrga bo'lib o'rganishni ma'qul ko'radilar: 1-davr — 1590-94, 2-davr 1594-1600, uchinchi davr 1600-1608, to'rtinchi davr 1609-1613-yillar. Shekspir dramaturgik ijodining 1-davrida doston, ilk tragediya („Tit andronik“) va komediyalar („Xatolar komediyasi“, „Qaysar qizning quyilishi“)dan tashqari, „Genrix VI“ (2-qism, 1590), „Genrix VI“ (3qism, 1591), „Genrix VI“ (1-qism, 1592), „Richard III“ (1593) ilk xronikalarini yozgan. 2-davrida „Richard II“ (1595) „Tragediyaga yaqin xronika“si, „Genrix IV“ (1qism, 1597), „Genrix IV“ (2-qism, 1598) va (1594), „Yoz tunidagi tush“, „Venetsiya savdogari“ (1596) romantik komediyalari hamda „Romeo va Julyetta“ (1595) tragediyasini yozgan. uning „Yo'q joydan chiqqan g'avg'o“ (1598), „O'n ikkinchi kecha“ (1600) singari mashhur komediyalari ham shu davrda maydonga kelgan. dramaturg ijodining shoh asarlari — „Yuliy sezar“ (1599), „Hamlet“ (1601), „Otello“ (1604), „Qirol lir“ (1605), „Makbet“ (1606), „Antoniya va Kleopatra“, „Koriolan“ (1607) singari tragediyalar shekspir ijodining 3-davrini tashkil etadi. „Genrix VIII“ (1613)

xronikasi, „Qish ertagi“ (1611), „Bo’ron“ (1612) romantik drama va tragediyalari esa Shekspirning so’nggi davr ijodi mahsulidir.

Shekspirning o’zbek tilida nashr qilingan “Otello”, “Qirol Lir” (G’.G’ulom), “Hamlet”, “Romeo va Julietta” (M. Shayxzoda), “Yuliy Sezar” (Uyg’un), “Qiyiq qizning quyilishi” (T.To’la) va boshqa asarlarini o’zbek kitobxonlari ham sevib o’qimoqdalar. Ayni kunlarda o’zbek kitobxoni Shekspir tragediyalari va dramalarini, ularni asliyatdan o’giran O’zbekiston xalq shoiri J.Kamol tarjimasida o’qimoqda.

2007-2008 yillarda O’zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi “FAN” nashriyotida nashr etilgan “saylanma” dan 12 ta fojea va dramalar o’rin olgan. “Saylanma” uch jilddan iborat bo’lib, birinchi jildda “Qirol Lir”, “Hamlet (Daniya shahzodasi)”, “Makbet” va “Afinalik Timon”, ikkinchi jildda “Romeo va Julietta”, “Otello”, “Korchalon” va “Yuliy Sezar”, uchinchi jildda “Venetsiya savdogari”, “Qish ertagi”, “Qirol Genrix IV” va hamda “Antoni va Kleopatra” kabi tragediya va dramalari jamlangan. Mazkur asarlar tarjimalari ko’p yillik mehnat va maxorat mahsuli hisoblanadi. Namlari zikr etilgan asarlarning har biri muayyan tadqiqotga munosib obyekt sifatida xizmat qiladi, gap ularni sinchiklab, o’qib, mag’zini chaqishda.

Buyuk ingliz dramaturgi va shoiri V.Shekspirdan o’n bitta tragediya, o’n yettita komediya, o’nta xronika (biror voqea tarixi yoritilgan asar), beshta poema (doston) hamda bir yuz ellik to’rtta sonetdan iborat juda boy, bundan ham muhimi, jahon adabiyotining shoh asarlari hisoblangan ijod namunalari qolgan.

I.2.2. Tarjima asarining mualliflari va o’zbek tiliga tarjimasida

Tarjima amaliyotini, uning o’ziga xosliklarini, tarixini, tamoyillari, prinsip va qonuniyatlarini tarjimashunoslik fani o’rganadi, tarjimonga o’girish uchun asar tanlash, tillararo tafovutlar hamda asliyatga xos boshqa xususiyatlarni, milliy adabiy an’analarni hisobga olgan holda ish tutishda yordam beradi. 20-asr o’zbek adabiyotida tarjimashunoslik maxsus fan tarmog’i sifatida yuzaga keldi va shakllandi. Cho’lpon, Sanjar Siddiq kabi mohir tarjimonlar nafaqat bu davr

tarjima adabiyotini, ayni paytda tarjimashunoslik ilmini ham boshlab berganlar, tarjima haqida maqola va risolalar bitganlar.

O'zbekistonda tarjimashunoslik maxsus ilm sifatida o'tgan asrning ikkinchi yarmidan shakllandi. Asr oxiriga kelib, bu sohada 10 ga yaqin fan dori, 50 dan ortiq fan nomzodi yetishib chiqdi. Prof. J. Sharipov tadqiqatlari asosan adabiyotimiz tarixida tarjimaning o'rnini ko'rsatishga bag'ishlangan bo'lsa, prof. F. Salomov asosan zamonaviy tarjimashunoslik masalalari bilan shug'ullandi, tarjima jarayoniga til hamda adabiy an'analarning ta'sirini ko'rsatib berdi. N. Komilov esa mumtoz janrlarning o'tmish va hozirdagi tarjimalarini tadqiq etdi. O'zbek tarjimashunosligi asosan adabiy yo'nalishda taraqqiy etgan. Tarjimaning lisoniy jihatlarini keyinroq — o'zbek tiliga ko'pgina xorijiy tillardan bevosita o'girishga yo'l ochilganidan so'ng rivojlana boshladi.

Shekspirning o'zbek tomoshabini tomonidan kashf etilishi 1935-yilda — „Hamlet“ tragediyasining Hamza nomidagi drama teatri (hoz. O'zbek milliy akademik drama teatri)da sahnalashtirilishi bilan boshlangan. Shundan keyin O'zbekistondagi o'zbek va rus teatrlarida Shekspirning „Otello“, „Romeo va Julietta“, „Yuliy Sezar“, „Qirol Lir“, „Koriolan“, „Veronalik ikki yigit“, „Qiyiq qizning quyilishi“, „Yoz tunidagi g'aroyib otlar“ singari asarlari katta muvaffaqiyat bilan qo'yildi. Shekspir asarlarini tarjima etishda G'afur G'ulom, Yashin, Uyg'un, Shayxzoda, Turob To'la, Q. Mirmuhamedov kabi yozuvchi va tarjimonlar ishtirok etdilar. So'nggi-yillarda Jamol Kamol Shekspir asarlarini bevosita ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qildi. Cho'lpon qalamiga mansub „Hamlet“ning tarjimasi esa o'zbek tarjima san'atining shoh namunasi hisoblanadi.

Shu o'rinda Maqsud Shayxzodaga alohida to'xtalib o'tish o'rinlidir.

Chunki Maqsud Shayxzoda(1908-1967) o'zbek adabiyotida tarjimashunoslikka katta hissa qo'shgan iste'dodli shoir, dramaturg, adabiyotshunos olim, tarjimon va mohir pedagogdir. U 1908 yilning 25 oktabrida Ozarboyjonning mashhur Ganja viloyatidagi Oqtosh shahrida tabib oilasida dunyoga kelgan. Millati ozarboyjon bo'lgan bu yigit 1921-1925yillarda Bokudagi Dorulmualliminda Abdulla Shoyiq, Husayn Jovid kabi mashhur shoirlardan tahsil olgan. So'ngra

Dog'istondagi Darband, Bo'ynoq, shaharlarida o'qituvchilik qilgan hamda Boku Pedagogika institutining sirtqi bo'limini tugatgan. O'sha yillarda Shayxzoda ba'zi qarashlari uchun nohaq ravishda millatchilikda ayblanib, 1928 yilda Toshkentga surgun qilingan va umrining oxirigacha shu yerda qolib ketgan. Ushbu bitiruv malakaviy ishida "Romeo va Julyetta" asarining aynan Maqsud Shayxzoda tomonidan amalga oshirilgan tarjimasi (1946 yil) ga asosan badiiy tarjimaning xususiyatlarini ochib berishga harakat qilingan.

I.3. Ingliz va o'zbek tillaridagi badiiy tasvir va ifoda vositalarining turlari.

Badiiy tilning eng muhim spetsifik xususiyatlari sifatida obrazlilik va emotsionallikni ko'rsatdik. Badiiy asarda tasvirlanayotgan narsani jonli tasvirlash, his-tuyg'u va kechinmalarni yorqin ifodalashga xizmat qiluvchi vositalarni umumlashtirib "badiiy tasvir va ifoda vositalari" deb ataladi. Badiiy tasvir va ifoda vositalari badiiy tilning belgilovchi xususiyati emas, balki belgilovchi xususiyat bo'lmish obrazlilik (tasviriylik) va emotsionallikni kuchaytiruvchi unsurlardir. Aytish kerakki, bu tushuncha adabiyotshunoslikda "poetik vositalar", "sintaktik figuralar", "stilistik figuralar" kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Shuni ham yodda tutish lozimki, bu vositalarning buni tasvir, buni ifoda vositasi deyishlik ham nomaqbul, chunki badiiy adabiyot so'z vositasida tasvirlaydi va shu tasvir orqali ifodalaydi. Ya'ni, ko'p hollarda bitta vositaning o'zi ham tasvir ham ifodaga xizmat qiladi. Faqat lirik asarlarda qo'llaniluvchi ayrim vositalar (mas, tovush takrorlari) borki, ular asosan ifodaviylikni kuchaytirish vazifasini bajaradi.

Badiiy til umumxalq tili asosida yuzaga keladi. Yozuvchi umumxalq tilidan foydalanar ekan umumodatlangan normadan og'adi (ya'ni, til unsurlarini odatdagidan o'zga shakl, ma'no, tartib, munosabat va shu kabilarda qo'llaydi) va shu "og'ish" dan ma'lum badiiy-estetik maqsadni ko'zda tutadi. Bu xil og'ishlar tilning turli sathlarida, jumladan, fonetik, morfologik, leksik, semantik, sintaktik sathlarda kuzatilishi mumkin. Badiiy tasvir va ifoda vositalari ijodkorning muayyan badiiy-estetik maqsadga erishish uchun umumodatlangan normadan og'ishi natijasida yuzaga keladi, ular tasvirning jonli va to'laqonli bo'lishiga, ifodaviylikning kuchayishiga xizmat qiladi.

Leksik satxdagi normadan og'ish yozuvchining umumxalq tili bazasidagi leksik vositalardan foydalanishida ko'rinadi. Ma'lumki, umumxalq tilidagi so'zlar o'zlarining nominativ holatida ham tasviriylilik va ifodaviylilik imkoniyatlari jihatidan farqlanadi. Ya'ni, ijodkor ifoda va tasvirni so'z ma'nosiga daxl qilmagan holda, mavjud so'z hazinasidan "so'z tanlash" hisobigagina kuchaytirishi mumkin bo'ladi. Yozuvchining umumxalq tilida mavjud so'zlardan umumodatiydan o'zgacharoq foydalanishi quyidagicha badiiy-estetik maqsadlar bilan yuz beradi:

1. Davr koloritini(ruhini) berish uchun. Lug'atdagi eskirgan so'zlar — **arxaizm** va istorizmlar odatdagi so'zlashuvda ishlatilmasligi ma'lum. Biroq ular tarixiy mavzudagi badiiy asarlarda davr koloritini berish uchun juda zarur. Deylik, o'z asarida o'n beshinchi asr voqeligini tasvirlayotgan ijodkor, tabiiyki, o'sha davrga xos realiyalarni tasvirlashi lozim bo'ladi. Ya'ni, o'sha davr koloritini o'sha davrga xos bo'lgan narsa-buyumlar, hodisalar, tushunchalar va h. nomlarisiz to'la tasvirlab bo'lmaydi. Ikkinchi tomondan, o'n beshinchi asr muhitida harakatlanayotgan personaj tili ham shunga mos bo'lishi, uning nutqida o'sha davrga xos so'zlar va so'zshakllar ishlatilishi obrazning ishonarli va to'laqonli bo'lishiga xizmat qiladi.

2. Adabiy tilda kam qo'llaniluvchi **dialektizmlar** badiiy asarda joy koloritini berish uchun qo'l keladi. Aytaylik, o'zbek tilida so'zlashuvchilar tarqalgan xududlarda umummilliy xususiyatlar bilan bir qatorda o'sha xudud kishilarigagina xos bo'lgan jihatlar (urf-odatlar, tasavvurlar, aqidalar, narsa-buyumlar va h.k.) ham mavjudki, bular birinchi galda sheva tilida o'z aksini topadi. Shunday ekan, asarda tasvirlanayotgan xududga xos buyoqlarni berish, unda harakatlanayotgan personaj xarakterini to'laqonli badiiy talqin etish uchun dialektizmlardan foydalanish zarurati yuzaga keladi.

3. **Badiiy obraz** konkretlik xususiyatiga ega. Asardagi personaj konkret muhitda harakat qiladi. Muhitga mansublikni ifodalashda varvarizmlar, vulgarizmlar, argo va jargonlarning ahamiyati katta. Muhit koloritini ifodalash bilan birga, ular personaj nutqini individuallashtirish, ruhiyatini ochish va umumiy qiyofasini yaratishda ham muhim ahamiyatga kasb etadi.

4. Tasvir predmetiga munosabatni ifodalash. Tilimizda mavjud so'zlar emotsional bo'yoqdorligi nuqtai nazaridan bir-biridan farq qiladi. Yozuvchi tasvir predmetiga munosabatini ifodalash uchun mavjud so'zlardan keragini tanlashi zarur bo'ladi. Masalan, sinonim so'zlar qatoridan ijobiy bo'yoqqa yoki salbiy bo'yoqqa ega so'zning tanlanishi yozuvchining tasvir predmetiga munosabatini yorqin ifodalab berishi mumkin.

Semantik satxdagi og'ishlar. Ma'lumki, nutq jarayonida biz so'zlarni o'z ma'nosida yoki ko'chma ma'noda qo'llashimiz mumkin. So'zning odatiy ma'nosidan o'zga ma'noda qo'llanishi semantik satxdagi og'ish sanaladi. Ko'chma ma'noda qo'llangan so'zlarning umumiy nomi trop (ko'chim) deb yuritiladi. So'z ma'nosi ko'chishining, tropning metafora, metonimiya, sinekdoxa, kinoya singari bir qator ko'rinishlari mavjud. Badiiy asarda qo'llanilgan ko'chimlar ishlatilish darajasi, badiiy bo'yoqdorligi, ta'sirdorlik darajasi kabi jihatlaridan bir-biridan jiddiy farqlanadi:

a) ko'chimlarning bir qismi allaqachon til hodisasiga aylanib ulgurgan. Masalan, "kun botdi", "soat yuryapti" kabi birikmalarda so'z ma'nosi ko'chganligi aniq, biroq biz ularga shu darajada ko'nikib ketganmizki, hozirda ularga ko'chim sifatida qaramaymiz ham. Badiiy asar matnida mazkur ko'chimlar qo'llanganida, tabiiyki, muallif muayyan badiiy-estetik maqsad bilan semantik satxda og'ishga yo'l qo'ygan deya olmaymiz, zero, ular yozuvchi tomonidan tayyor holda olingan. Balki, bu xil ko'chimlar matnda estetik funktsiya bajarmaydi, ularni badiiyat hodisasi sifatida talqin qilib bo'lmaydi;

b) asar matnida badiiy adabiyotda an'anaviy tarzda ishlatilib kelayotgan ko'chimlar ham ko'p uchraydi. Masalan, "shakar lab", "gul yuz", "bulbul", "sarv qomat", "qoshi kamon", "nargis ko'z" va hokazo. Bu xil ko'chimlar ham yuqoridagilar singari tayyor holda olinadi, biroq, ulardan farqli o'laroq, matnda estetik funktsiya bajaradi: tasviriylikni, ifodaviylikni kuchaytiradi;

v) badiiy-estetik funktsiyadorligi, tasviriylik va ifodaviylikni kuchaytirishi jihatidan muayyan matndagina ko'chma ma'noda qo'llangan, muallifning assotsiativ fikrlashi mahsuli o'laroq dunyoga kelgan ko'chimlar alohida o'rin

tutadi. Ularni shartli ravishda "xususiy muallif ko'chimplari" deb atashimiz mumkin. Shu xildagi ko'chimplargina yozuvchining muayyan badiiy-estetik maqsadni ko'zlab yo'l qo'ygan semantik satxdagi og'ishi natijasidirki, uning badiiy til bobidagi mahorati xususida gap borganda biz, avvalo, shu xil ko'chimplarni e'tiborga olishimiz kerak bo'ladi.

Voqelikdagi narsa-hodisalar orasidagi bizga ko'rinmagan, biroq san'atkorona o'tkir nigoh bilan ilg'angan o'xshashlik, aloqadorlik asosidagi ko'chimplar o'quvchini hayratga soladi, unga zavq bag'ishlaydi. Badiiy asarda eng ko'p qo'llanuvchi ko'chim turlaridan biri metaforadir. Metafora usulidagi ma'no ko'chishida narsa-hodisalar orasidagi o'xshashlikka asoslaniladi. Tabiatan, metaforani yashirin o'xshatish deb atash mumkin. Yashirin o'xshatish deb atalishiga sabab shuki, metaforada o'xshatilayotgan narsa tushirib qoldirilgani holda o'xshayotgan narsa uning ma'nosini bildiradi. Tabiiyki, bunda o'xshatilayotgan narsalardan aynan o'xshashlik talab qilinmaydi, ikki narsa hodisaga xos belgilardan birortasi asos uchun olinadi. Masalan, "oltin kuz", "oltin davr" birikmalarining birinchisida "rang", ikkinchisida "qimmat" asos uchun olingan. Keltirilgan misol metaforaning eng sodda ko'rinishlaridan bo'lib, quyida o'xshashlik aloqalari birmuncha murakkabroq namoyon bo'luvchi xususiy muallif metaforalaridan bir nechasini mushohada qilib ko'ramiz.

Ma'no ko'chishining keng tarqalgan turlaridan yana biri metonimiyadir. Metonimiya (gr.-"o'zgacha nomlash", "boshqa narsa orqali atash") usulida ma'no ko'chganida narsa-hodisalar o'rtasidagi aloqadorlik asos qilib olinadi. Bu aloqadorlik turlicha ko'rinishlarda namoyon bo'lib, bunda narsa-hodisa, holat yoki harakat bilan ular egallagan joy ("stadion hayqirdi", "butun shahar qatnashdi"), vaqt ("og'ir kun", "omadli yil"); harakat bilan u amalga oshiriladigan vosita ("achchiq til"); narsa va uning egasi, yaratuvchisi ("Fuzuliyni o'qimoq"); narsa va u yasalgan modda, xom-ashyo ("barmoqlari to'la tilla"); ruhiy holat, xususiyat va uning tashqi belgisi ("ko'z yummoq") kabi aloqalarga asoslaniladi. Badiiy adabiyotda, ayniqsa, metaforik tafakkur etakchilik qilayotgan zamonaviy adabiyotda metonimiya metaforaga nisbatan kamroq uchraydi, o'zining estetik

funktsiyadorligi jihatidan ham u metaforadan quyiroq turadi. Shunday bo'lsa-da, badiiy matnda metafora bilan yondosh qo'llangan holda u katta badiiy samara beradi, fikrni lo'nda va ta'sirli ifodalashga xizmat qiladi. Misol uchun A.Oripovning "Bahor" she'ridan olingan "Qaydadir yurtini eslab ingrar nay" satrini olib ko'raylik. Cholg'u asbobi orqali kuy ma'nosining berilishi — metonimiya, biroq u "ingrar" metaforasi bilan qo'shilib kuchli badiiy samara beradi. Yoki "Faryod chekkanim yo'q el ichra taqir, O'ch ham olganim yo'q na qalamimdan" satrlarida ham yana vosita orqali jarayon nazarda tutiladi va u ham "o'ch olmoq" metaforasi bilan baqamti qo'llanadi. Bu ikkisi birlikda esa "butun vujudim bilan ijodga berilib g'amlarimni unutishga harakat qilmadim" degan ma'noni beradi va, muhimi, shu mazmunni obrazli, ta'sirli ifodalashga xizmat qiladi.

Tropning yana bir turi sinekdoxa bo'lib, u mohiyat e'tibori bilan metonimiyaning bir ko'rinishidir. Sinekdoxaning metonimiya ko'rinishi sifatida qaralishiga sabab shuki, bunda ham aloqadorlik asosida — butun va qism, yakka va umum aloqasi asosida ma'no ko'chishi yuz beradi. Shu bois ham mutaxassislar sinekdoxani metonimiyaning miqdoriy ko'rinishi deb qaraydilar. X.Davronning "Kulol muhabbati" she'ridan:

Sahardan to oqshomga qadar,
Ko'kda porlab yonmaguncha oy,
Ertak so'ylar sarxush barmoqlar,
Ertak tinglar qizil rangli loy...

Bu o'rinda ham "ertak so'ylar" metafora bo'lsa, "barmoqlar" sinekdoxadir. "Ertak so'ylar" deganda kulolning o'z ishiga butun mehri, qalb qo'ri bilan berilgan ijodning sehrli onlari nazarda tutiladi. Tabiiyki, ertak so'ylayotgan "barmoqlar" — qism va u butunni — kulolni anglatadi. Yoki M.Yusuf "Faqat shu er yaqin yurakka, Faqat shunda quvonar ko'zlar" deganida ko'z odam ma'nosini bildirishi ham sinekdoxaga misol bo'la oladi. Yakka narsa nomi bilan umumni nazarda tutishlik ham sinekdoxa sanaladi. Sh.Rahmon bir she'rida: "Qadimda mevalar etilgan paytda savob deb yashagan komil ajdodim

musofir chanqog'in bossin deb atay buzib qo'yar ekan bog'lar devorin" deb yozarkan, "qadim ajdodim" birikmasi ostida ajdodlarni, butun xalqni nazarda tutadi. Shunga o'xshash, "O'zbekning qorako'z bolalariga bitta dunyo qolsin hayratlik" deganida ham o'zbek xalqi nazarda tutilgani tayindir. Badiiy asarlarda atoqli otlarning turdosh ot ma'nosida qo'llanilishi ham sinekdoxaning bir ko'rinishi deb qaraladi. Masalan, shoir "faqat Jumavoyi bo'lgani uchun havaslaring kelar robinzonlarga" deganida Robinzonga o'xshash hayot kechiruvchi kishilarni - ko'pchilikni nazarda tutadi.

Ma'no ko'chishining yana bir turi "kinoya" (ironiya) bo'lib, u teskari o'xshatishga asoslangan ko'chimdir. Masalan, A.Qodiriy Kalvak maxzumning badbashara qiyofasini chizib bergach, boshqa bir o'rinda uni "husni Yusuf" deb ataydiki, bu birikmaning teskari ma'noda qo'llangani bizga ravshan. Kinoya qahramonlar tilida ham keng qo'llanadi. Biroq bu holda u ko'chim sifatida emas, ko'proq konkret hayotiy holatga, sog'lom mantiqqa yoxud so'zlovchining maqsadiga muvofiq kelmaydigan gap sifatida ko'rinadi. Kinoya asosidagi bu usul antifrazis deb yuritiladi. Antifrazis tasvir predmetiga yozuvchi munosabatni ifodalashda ayniqsa qo'l keladi.

Ko'chimning yana bir turi allegoriya bo'lib, bunda mavhum tushunchalar konkret narsa-hodisalar orqali ifodalanadi. Badiiy adabiyotda allegoriyalar ko'proq an'anaviy tarzda qo'llanib, ular turg'un holatga kelib ulgurgan. Masalan, badiiy asarlarda "tulki" ayyorlik, "bo'ri" vahshiylik, "eshak" farosatsizlik, "jibljibon" qo'nimsizlik, "buqalamun" tutruqsizlik kabi ko'chma ma'nolarda qo'llanadi.

Badiiy adabiyotda mohiyatan allegoriyaga yaqin bo'lgan ko'chimning bir turi sifatida simvol (ramz) ham qo'llanadi. Simvolning allegoriyadan farqi shundaki, u muayyan kontekst doirasida ham o'z ma'nosida va ham ko'chma ma'noda qo'llanadi. Masalan, Cho'lpon she'riyatidagi "yulduz", "bulut", "bahor", "qish" obrazlari buning yorqin misoli bo'la oladi. Jumladan, Cho'lponning mashhur "Qalandar ishq" she'rini o'qiganda uni ishqiy mavzudagi she'r sifatida tushunishimiz mumkin. Biroq bu she'rdagi ramzlar qatida boshqa bir ma'no ham

mustaqil holda mavjud bo'lib, bu ma'noni o'z vaqtida shoirga ruhan yaqin qishilar tushunganlar. Sababi, ular ramzlarning ma'nosi anglashiladigan kontekstdan — shoirning hayot yo'li, orzu-intilishlari, she'r yozilgan paytdagi ruhiy holati va hakoza omillardan xabardor bo'lganlar. Demak, hozirda ham she'rni Cho'lponning hayot yo'li va ijodiy merosi kontekstida o'rganilsa, ramziy ma'no anglashilishi mumkin. Ramzning tabiati haqidagi fikrlarni R.Parfi she'ridan olingan tubandagi parcha misolida ham ko'rishimiz mumkin:

Yana keldim mahzun go'shaga

Bunda bir nay yotibdi sinib.

Qo'y sig'inma ortiq o'shanga,

Qo'y sig'inma unga sevgilim...

Parchadagi "singan nay" ramzdir. Mazkur ramzni o'z ma'nosida ham (ya'ni, o'sha go'shada chindanam singan nay yotibdi degan ma'noda), shuningdek, uni lirik qahramonning yo'qotilgan hislari, armonga aylangan orzulari ma'nosida ham tushuniish mumkin bo'ladi. Ikkinchi holatda biz "singan nay"ni ramz sifatida qabul qilgan bo'lamiz. Masalaning yana bir muhim tomoni shuki, "singan nay" bilan "yo'qotilgan hislar, armonga aylangan orzular" orasida hech qanday, ya'ni, metaforadagi kabi o'xshashlik yoki metonimiyadagi kabi aloqadorlik asosidagi munosabat mavjud emas. Ya'ni, "singan nay" faqat shu kontekst doirasidagina shartli ravishda o'sha mazmunni ifodalashi mumkin. Xuddi shu gap Cho'lponning "Qalandar ishqi" she'ridagi "yor", "muhabbat", "dengiz", "yulduz", "quyosh" ramzlariga ham to'la taalluqlidir. Zero, ular ham o'zlari ifodalayotgan ramziy ma'no bilan o'xshashlik yoki aloqadorlik munosabatida emas, faqat shartli ravishdagina (shartdan, kontekstdan boxabar kishilargagina) ramziy ma'noni ifodalaydilar. Shartdan, kontekstdan bexabar o'quvchi uchun esa she'rning faqat bevosita mazmuni, yuzadagi mazmunigina mavjuddir.

Badiiy tasvir va ifoda vositalariga to'xtalar ekanmiz, biz mavjud vositalarning hammasini ko'rib chiqishni maqsad qilmaganmiz. Zero, bu vositalarning har biri alohida mashg'ulot mavzusi bo'lish uchun etarli material beradi. Yuqoridagi mulohazalar mazkur mavzuga kirish vazifasini o'tasa kifoya. Siz endi

adabiyotshunoslikka oid lug'atlar, badiiy til xususiyatlariga oid ishlar bilan tanishish, badiiy asarlarni mutolaa qilish jarayonida til unsurlariga jiddiy e'tibor qilishingiz, biz to'xtalmagan yoki misollar keltirmagan vositalar mohiyatini mustaqil o'rganishingiz va o'zlashtirishingiz zarur bo'ladi.

Adabiyotshunoslikda tahlil va talqin tushunchalari juda keng qo'llanilib, ular badiiy asarni tushunish jarayonining bir-biriga bog'liq jihatlaridir. Badiiy asarni tushunish, uning mazmun mohiyatini anglash jarayonida tahlil va talqin amallari har vaqt hozirdir. Tahlil atamasi odatda ilmda "analiz" deb yuritiladigan istilohning sinonimi sifatida tushuniladi. Analiz esa, ma'lumki, butunni anglash uchun uni qismlarga ajratishni, qismning butun tarkibidagi mohiyatini, uning boshqa qismlar bilan aloqasi va butunlikning yuzaga chiqishidagi o'rnini o'rganishni ko'zda tutadi. Ayrimlar badiiy asarni tirik organizmga qiyos etishadida, "uni qismlarga ajratish jonsiz tanaga aylantirishdan boshqa narsa emas" degan qarashga tayanib tahlilga qarshi chiqadilar. Biroq bu xil qarash asossizdir. Zero, adabiyotshunoslikdagi tahlil ham — o'qish, faqat bunda badiiy asarni tadqiqotchi sifatida o'qish tushuniladi. Bu xil o'qish jarayonida tadqiqotchi badiiy asarni qismlarga ajratarkan, uning badiiyat hodisasi sifatidagi mavjudligini, undagi o'quvchi ongi va ruhiyatiga ta'sir qilayotgan, uning u yoki bu tarzda tushunilishiga asos bo'layotgan omillarni o'rganadi.

Talqin atamasini biz "interpretatsiya" istilohining sinonimi sifatida tushunamiz. Talqin badiiy asarni sharhlash, uning mazmun mohiyatini, undagi badiiy kontseptsiyani idrok etish demakdir. Keng ma'noda "talqin" so'zi o'zga tomonidan aytilgan gap yoxud yozilgan asar (ilmiy, falsafiy, diniy, badiiy va h.) mazmunini anglash, uni ma'lum yaxlitlikda tushunish va tushuntirish (adabiyotshunosning maqsadi tushunishning o'zigina emas, tushuntirish hamdir) ma'nolarini anglatadi. Shu ma'noda qaralsa, mumtoz adabiyotshunosligimizda, umuman, o'tmish ilmida "talqin" so'zining ma'nosi qisman "sharh", "tafsir" atamalari bilan ham berilgan. Yana ham aniqroq aytsak, talqin badiiy asardagi "obrazlar tili"ni " mantiq tili"ga o'girmoq, obrazlar vositasida ifodalangan mazmunni tushunish va tushuntirmoqdir.

Yuqorida aytdikki, badiiy asarni tushunish jarayonida tahlil va talqin amallari har vaqt hozir, ular tushunish jarayonining ikki qirrasidir. Aytaylik, "o'quvchi badiiy asarni tushundi" degani, mohiyatan, "o'quvchi asarni o'zicha talqin qildi" deganidir. Ayni paytda, uning asarni tushunishida tahlil unsurlari ham mavjud, zero, oddiy o'quvchi ham tushunish jarayonida asar qismlarini (mas., alohida epizodlarni, personajlarni, ularning turli holatlardagi xatti-harakati, gap-so'zlarini va h.), ularning o'zaro mazmuniy aloqalarini tasavvur qiladi. Ilgari ham aytganimizdek, konkret badiiy asar turli o'quvchilar tomonidan turlicha tushunilishi mumkin. Biroq shunisi ham aniqki, o'quvchilar ongidagi minglab talqinlarni umumlashtiradigan mushtarak nuqtalar ham mavjud. Demak, konkret asar talqinlari nechog'li turfa bo'lmasin, ularning chegaralarini belgilab beruvchi muayyan asos, deylik, yadro(javhar) mavjudki, barcha talqinlar shu yadro atrofida hosil bo'ladi. Bu yadro esa - badiiy asarning o'zi, badiiyat hodisasini o'zida moddiylashtirgan badiiy matndir. Ayon bo'ldiki, badiiy asarni tushunish jarayoni ob'ektiv va sub'ektiv ibtidolardan tarkib topar ekan: agar bu o'rinda talqin qilayotgan shaxsni sub'ektiv ibtido deb olsak, badiiy matn ob'ektiv ibtidodir.

Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, agar talqin qiluvchi shaxs badiiy matnni etarli darajada bilmasa, asar qismlarini, ularning o'zaro aloqalarini etarli tasavvur qilolmasa, uning talqini sub'ektivlik kasb etadi. Boshqa tomondan, badiiy adabiyotning obrazlar orqali fikrlashi, obrazning esa assotsiativ tafakkur mahsuli ekanligini e'tiborga olsak, talqinning sub'ektsiz mavjud emasligi ayon haqiqatdir. Chunki ijodkorning assotsiativ fikrlashi mahsuli o'laroq yaratilgan va asarda aksini topgan obrazning mazmun qirralari faqat sub'ekt ongidagina (ya'ni, uning ham assotsiativ fikrlashi asosida) qayta tiklanishi mumkin bo'ladi. Aytilganlar tushunish jarayonida tahlil va talqinning har vaqt hozirligining yorqin dalilidir. Oddiy o'quvchidan farq qilaroq, adabiyotshunos badiiy asarni talqin qilarkan, tahlilga tayanadi, uning talqini tahlil asosida yuzaga kelgani uchun ham ilmiy sanaladi. Shu ma'noda tahlil badiiy asarni tadqiqotchi sifatida o'qish va uqish demakdir.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, badiiy asar tarjimasining maqsadi - asarni tushunish (asarni baholash ikkilamchi maqsad). Xo'sh, "asarni tushunish" deganda nima nazarda tutiladi? Bu masalada ham adabiyotshunoslikda turlichalik mavjud: ayrimlar asarga muallif tomonidan yuklangan mazmunni tushunishni nazarda tutsalar, boshqalari asarda tasvirlangan narsalardan (ob'ektiv ibtidodan) kelib chiqadigan mazmunni tushunishni nazarda tutadilar. Bu qarashlarning birinchisiga ko'ra tushunish jarayonida tahlil etakchilik qilsa, ikkinchisida tarjimada talqinning mavqei ustunroq ekanligi tayin; birinchisi badiiy asarni uning ichki va tashqi aloqalarini birlikda olib o'rganishni (kontekstul tahlil) taqozo etsa, ikkinchisi badiiy asarga alohida mavjudlik sifatida qarab, uning ichki aloqalarini o'rganish (immanent tahlil) bilan cheklanadi. Biroq mazkur qarashlarning ikkisini ham mutlaqlashtirib bo'lmaydi, bu o'rinda "oraliq" mavqenining egallangani, har ikki yo'sindagi tahlilning ham mavjudligini, ularning bir-biridan ko'zlagan maqsadi va ahamiyati jihatidan farqli ekanligini tan olingani to'g'riroq bo'ladi.

**IKKINCHI BOB. QARDOSH BO'LMAGAN TILLARDA BADIY
TARJIMANING IFODA VA USLUBIY VOSITALARI. (UILYAM
SHEKSPIRNING "ROMEO VA JULYETTA" ASARINING BADIY
TARJIMASI MISOLIDA")**

Badiiy asarni tarjima qilish uchun tilning lug'at boyligi, chunonchi sinonim va omonimlar, kasb-hunar terminlari, dialektal, eskirgan va vulgar so'zlar, erkalash va kichraytirish, qochiriq, matal va idiomalarni hamda so'zlarning musiqiyligiyu, ohangdorligini, ko'p ma'noliligini, tilning talaffuz normalarini, mubolag'a va kichraytirish xususiyatlari, yumor-hazil-mutoyiba formalarini bilish zarur.

Tarjimashunos olim G'aybulla Salomov, badiiy asarni qayta yaratish jarayonida amalga oshadigan uch bosqich to'g'risida to'xtalib, shunday fikrni keltiradi:

1. Asl nusxani tarjimon qanday qabul qilishi (tushunishi).
2. Asarni real, avtorning maqsad-muddaosi va uning o'ziga xos uslubini qanday talqin qilishi.
3. So'z san'ati namunasini o'z ona tilida qayta tiklashda muqobil vosita topa olishi.

“Badiiy tarjimani ilmiy tavsiflash shundan iboratki, bunda so'zni so'z bilan emas, balki ma'noni ma'no bilan, ohangni ohang bilan, obrazni obraz bilan, yumorni yumor bilan berish muhim ahamiyatga egadir».

“Badiiy tarjimaning boshqa turdagi tarjimalaridan farqi shundaki, so'z, jumla yoki butun bir asarni to'g'ri o'girish kifoya emas. Bunda tarjimon ham san'atkor bo'lishi lozim”(16;12)

Shekspirning «Romeo va Julyetta» tragediyasida ko'pchilik personajlar nutqi inglizxabon xalqlar bilan ko'p asrlardan buyon munosabat va muloqotda bo'lib kelgan kishilarga birmuncha tushunarli bo'lgani uchun M.Shayxzoda tarjimasiga asos bo'lgan ruscha tarjimaga e'tiroz bildirmaslik mumkin. Ammo qayd etish lozimki, aqsud Shayxzodaning tarjimaiholida uning buyuk mehnat mahsuli yani "Romeo va Julyetta" asarining o'zbek tiliga tarjima qilinishi to'g'risida biron bir ma'lumot toppish qiyin bo'ldi. Lekin boy o'zbek tarjima adabiyoti na'munalari orasida G'ofur G'ulom va Maqsud Shayxzoda qalamiga mansub tarjima asarlar to'plami "Villyam Shekspir. Tanlangan asarlar" ushbu tadqiqot ishimizning asosini tashkil qildi.

Tarjimonlar o'zga milliy adabiyotlarda mavjud bo'lgan eng sara, katta ijtimoiy, adabiy-estetik va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan kitoblarni o'z tillariga ag'darishga oshiqadilar. «Qayta yaratish bilan bog'liq umumiy adabiy estetik jarayonning uch tomoni: tanishuvdan kelib chiqqan tarjima, tarjimadan kelib chiqqan tanishuv, hamda bularning har ikkalasidan hosil bo'lgan ta'sir bir-biri bilan dialektik tarzda chambarchas bog'liqdir»

II.1. Badiiy tarjimaning bilvosita ifodalanishi

Badiiy tarjima xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalarni shakllantirish va mustahkamlashda bir xalqning madaniy boyligi, hayoti, turmush tarzi va manaviy yutuqlarini boshqa xalqlarga tanishtirishda muhim o'ringa ega. Tarjima tufayli o'zbek o'quvchilari rus va chet el yozuvchilarining asarlari bilan o'z ona tilida tanishishni davom ettirmoqdalar. Rus mutaxassislarining ulkan tarjima tajribasi o'zbek tarjimachiligi uchun maktab vazifasini bajargan. Bundan tashqari rus tili jahon adabiyotini o'zbek tiliga tarjima qilishda doimiy vositachi bo'lib kelgan. Chet tili mutaxassislarining yetishmasligi, yetarli tarjima tajribasining yo'qligi va shunga o'xshash boshqa omillar vositali tarjimaga bo'lgan talabni kuchaytirdi, bu esa o'z navbatida o'zbek adabiyotida chet el asarlarining ko'payishiga olib keldi. Lekin shu yutuqlar bilan bir qatorda qator kamchiliklarni ham ushbu ishimizda ko'rsatib o'tishni maqsad qildik.

Tarjima murakkab jarayon hisoblanadi bunda to'liq yaxlitlikka erishish uchun tarjimonga badiiy sezgi, qobiliyat va keng aql idrok yetishmasligi mumkin. Tarjima qilinayotgan asar tili va o'z ona tilini yaxshi bilish bilan bir qatorda tarjimon muallif uslubi, asarda tasvirlangan obrazlar xarakteri, hayoti, urf-odatlar, turmush shart sharoitlari, psixologiya, shu bilan birga tarix, adabiyot diniy va milliy qarashlar asardagi turli holat va jarayonlar haqida chuqur tasavurga ega bo'lishi kerak. Adekvat tarjima uchun nafaqat asar badiiy butunlik sifatida aks etishi, balki uning tili va uslubini muallif o'zi tasvirlagandek tassavur qilinishi kerak. Agar tarjimon asar tilini bilmasa va uning taglama tarjimalari yoki bilvosita qilingan tarjimalari nusxalaridan foydalanib tarjima qilsa, asliyat matni va tarjimaning mosligi borasidagi muammolar yanada ko'payadi. Asl nusxani boshqa nusxalar vositasida tarjima qilishda asarning mazmun va shakli o'zgaradi va bu muallifning individual uslubini yo'qolishiga va ko'plab boshqa xatoliklarga olib keladi. Tarjimada asarning o'ziga xosligini tiklash muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun, davrlar xarakterini, muallifning badiiy ijodiy uslubini asar qahramonlari nutqini tarjimon imkon boricha to'g'ridan-to'g'ri asl nusxadan tarjima qilishi kerak.

Badiiy tarjima jarayonida shunday holatlar ham bo'ladiki biz yuqorida ko'rib o'tganimiz, mikrokontekstdan har doim ham gapning ma'nosini anglab olib bo'lmaydi. Bu kabi holatlarda, tarjimonlar o'zining fon bilimlariga tayanib ish ko'rishlari kerak bo'ladi. O'zbek tilida odatda hurmatli va yoshi katta kishilar bilan muloqot qilish jarayonida “-siz” suffiksi va “siz” olmoshini so'zlarning oxiriga qo'shish qabul qilingan. Rus tilida bu holat “ты” va “вы” so'zlari yordamida farqlanadi. Ingliz tilida yesa bu ko'rsatgich har qanday holatda ham “you” tarzida beriladi. Shuning uchun ham, qahramon “siz”lab yoki “sen”lab gapirayotganini umumiy katta konteksning vositasida tarjimon aniqlab olishi zarur bo'ladi. Shuning vositasida odob-ahloq qoidalari normalari saqlab qolinadi:

Why, last night, dad, we heard her say, I played it ever so much. Honest – I have been playing it. And it's such a splendid instrument; you don't know how I love it. I didn't like to play loud when you was so sick.

Nega unday deysan otajon, - dedi qiz, - kecha kechqurun juda ko'p chaldimku. Xudo haqqi, otajon rostdanam chaldim. Nimasini aytasan shunday ajoyib pianino ekanki, asti qo'ya ber, u menga juda, juda yoqib tushdi. Sen betob bo'lganing uchun qattiq chalgim kelmadi.

Asl nusxaning milliy o'ziga xosligini tiklash badiiy asarning tarjima qilinish muammolari bilan chambarchas bog'liq. Ma'lumki, badiiy asarlarda ma'lum bir xalqning voqye'lik omillari badiiy obrazli shaklda ifodalaniladi. Obrazlarning o'ziga xos jixatlari va xarakterlari asarda frazeologik birliklar orqali ifodalaniladi. Ular har bitta tilda o'ziga xos ifoda shakliga yega. Frazeologik birliklar xalqning madaniyatdagi o'ziga xosligini til tizimiga mustaxkam o'rinishadi va bu bilan ma'lum bir milliy rux bag'ishlaydi.

Iboralarning milliy koloriti, ular tarkibidagi ma'lum bir birliklar ishtirokida shakllanadi. Ma'lumki turli xil geografik nomlar ham iboralarning tarkibiy qismi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Misol uchun quyidiga iboralar tarkibiga mamlakat, shaxar, qishloq, daryo, saxro nomlari ham kiradi. Bu iboralarning ba'zilar mazmun va madaniyati jixatidan faqat o'zbek xalqi uchun xosdir. Bu kabi birliklarning tarjima tilida berilishida yo'l qo'yilgan xatoliklar odatda butun boshli matnda g'alizliklarni keltirib chiqaradi. Bunday iboralarning qo'llanilishi asl nusxadagi tilning o'ziga xosligiga mos kelmay natijada milliy koloritga zarar yetkazadi. Agar asl nusxa matni so'zlarining tarjima matni tarkibiga kiritish holatlari tarjima amaliyotda xatarli bo'lsa, milliy mohiyatni ifodalovchi bunday til birliklarini tarjima qilish o'ta qaltis chunki bunda tarjima asl nusxa bilan umuman mos kelmasligi mumkin. Bunday holatlar ma'lum bir til soxiblari uchun darrov ko'zga tashlanadi. Buning natijasida ortiqcha tafsilot va mazmunnning yo'qolishi yuzaga kelishi ham mumkin.

Bu orada ma'lumki xar bir milliy tilning lug'at boyligi nafaqat o'zining ichki imkoniyatlari bilan balki boshqa tillarning ta'siri ostida ham boyitiladi. o'zlashtirma so'zlar tilning lug'at boyligida mustaxkam o'ringa ega. Bundan tashqari tarjimon xar bir xalq uchun o'ziga xos ma'no kasb etuvchi o'xshash so'zlarga aloxida e'tibor berishi kerak.

To'g'ridan-to'g'ri tarjima har doim asl nusxaning mazmun va shakl dialektik birligini tiklash imkonini beradi.

Nafaqat kommunikativ balki ma'lum bir stilistik vazifalarni ifodalashda foydalaniladigan til vositalari tarjimada murakkabliklarni yuzaga keltiradi. Ularni bartaraf etish esa kontekstda mavjud birliklarning mohiyatini tushunish aniq vaziyat til birliklarini mohirona tanlash bilan chambarchas bog'liq.

Yaxshi tarjima qilingan asar har doim o'quvchini quvontirib unga estetik zavq bag'ishlaydi. Rus tili ikki madaniyat o'rtasida yaxshi vositachi vazifasini bajardi va o'zbek adabiyoti xazirasini boyitdi va boyitishni davom etmoqda. Lekin, masala shundaki bevosita tarjima muammolarini qayta ko'rib chiqish va uni rivojlantirish uchun jiddiy sabablar bor. Zero bu xaqiqiy asar ruxini birga yetkazishga xizmat qiladi. Faqat shundagina badiiy o'ziga xoslikni milliy ruxiyatni va muallifning individual ruxiy ijodiy uslubini ifodalash mumkin.

Bugungi kunda ingliz tilini o'rganish uchun yaratilgan imkoniyatlar, o'z mevasini beradi, albatta Shekspir ijodiga yana bir marotaba murojaat qilish uchun kelajakda o'zbek tarjimon yozuvchilari yetishib chiqadi.

II.2. Badiiy tarjimaning bevosita va bilvosita ifodalanishi.

Bevosita tarjima. Bu – to'g'ridan-to'g'ri asl matn bilan ishlash natijasida yuzaga keladigan tarjima. Bevosita tarjima jarayonida mutarjimning asl tilini bilguvchi, zullisonayn bo'lishi talab qilinadi. Bu haqda adabiyotda ko'p gapirilgan. N.A.Dobrolyubovning «Eneida» haqidagi maqolasini eslaylik. Unda buyuk tanqidchi tarjima qiluvchi kishi, birinchi navbatda, shoir bo'lishi (1) kerak, degan edi. Uning badiiy didi yuksak bo'lishi (2), ayni asarni yozgan shoirning ichki dunyosini bilmog'i (3), uning ijodini to'liq his qilmog'i (4) kerak. bugina emas, klassik asarlarni tarjima qiluvchi kishi olim ham bo'lishi (5) zarur. U o'sha xalqning qadimiy turmush sharoitlarini (6), o'sha davrlardagi urf-odatlarini (7), xususan, ularning tilini (8) mukammal bilmog'i darkor. Har bir so'zning eng nozik ma'nolarini (9), hatto ko'z ilg'amas bir ko'makchining ma'nosini (10) ham yaxshi bilishi kerak. Xususan, u asarni qaysi tilga tarjima qilayotgan bo'lsa, o'sha tilni juda yaxshi bilishi (11) zarur. U zo'rma-zo'rakilik bilan tarjima qilmaslik (12), o'z

tilining butun boyligidan to'la foydalana olish (13), bironta ham sun'iy jumlag, g'aliz iboraga yo'l qo'ymaslik (14), asarda tasvirlangan fikrni mumkin qadar to'laroq aks ettirish uchun o'z tilida to'g'ri va chiroyligina emas, balki yengil va erkin yoza bilmog'i (15) lozim («Eneida» haqidagi maqoladan).

Bevosita, bilvosita yoki vositali tarjimada mutarjim asliyat (A) tilidan ikkinchi (B) tilga o'girilgan matn asosida o'zining (V) tiliga ag'daradi – tarjimadan tarjima yuzaga keladi. Natijada taglamadan B tildagi tarjimaga o'tgan hamda uning o'zida yuz bergan qusurlar V tilga o'tishi oqibatida tarjima sifatsizlanaveradi. Shuning uchun bevosita tarjima eng muhim sifat mezonini hisoblanadi. Jahon adabiyotida bunga misol ko'p.

Yuqori taraqqiyot bosqichida turgan xalqlarning so'z ustalari Shekspir asarlarining vosita tillar orqali tarjima qilinishini o'zlari uchun isnod deb bilganlar. Shu tufayli doimo buyuk adibni bevosita ingliz tilidan tarjima qilish uchun kurashdilar. Hozir ruslar, ukrainlar, gruzinlar, armanlar, Boltiq bo'yiliklar dramaturg asarlarini ingliz tilidan tarjima qiladilar. M. Lozinskiy, B. Pasternak, S. Marshak Shekspir asarlarini to'g'ridan-to'g'ri XVII asr ingliz tilidan, S.N. Ivanov Alisher Navoiy asrlarini XVI asr eski o'zbek tilidan qoyil maqom qilib o'giranlar.

Tarjimaga filologik taxlil nuqtai nazaridan yondashish xorijiy tildagi matnni teran anglash va tarjima jarayonida asl nusxa matnidagi so'z va iboralarning tagmazmunini tarjima tilida qayta yoritishda qo'l keluvchi usullardan biri hisoblanadi.

Ushbu muammoni buyuk ingliz adibi Shekspir asarlarining rus va o'zbek tillarga tarjimasi tarixi asnosida ko'rib o'taylik.

Ma'lumki, Shekspir fojealari dastlab rus tiliga XVIII asrda tarjima qilingan. Aniqrog'i 1748 yil shoir A. Sumarokov "Hamlet" fojeasini rus tiliga o'giradi. Bu tarjima rus adabiyotida klassisizm davri adabiyotining maxsuli bo'lib, unda klassisizm uslubining ustivorligi yaqqol sezilib turadi. Xullas, A.Sumarokov tarjimasi o'sha davrdagi rus Shekspirshunoslari tomonidan tanqidga uchraydi. Demak, XVII-XVIII asrlarda Yevropada hukmron bo'lgan klassisizm aqidalari

tarjima asarlariga ham o'z hukmini o'tkazgan. Qolaversa, “filologik tanqid va talqindan” uzoq bo'lgan XIX asrga kelib, tarjimada, xususan Shekspir asarlarini rus tiliga o'girishda “taqlidiy tarjima” o'rnini “erkin tarjima” uslubi egallaydi. Bu uslub davrining ilg'or adabiy oqimi bo'lgan romantizm qonuniyatlariga mos edi. Bu xususiyat Shekspirshunos olimlarning ta'kidlashicha o'sha yillarda amalga oshirilgan Shekspir asarlarining P.Vronchenko K.Kyuxelbeker tarjimalariga mosligini takidlab o'tadilar. Ayni paytda “erkin tarjima” usuli “Hamlet”ning 1889 yilda A.Moskovskiy tarafidan o'girilgan tarjimasida hukmron bo'lib qolgan edi.

XX asrga kelib, Shekspir asarlari rus tiliga yanada mukammal, ta'bir joiz bo'lsa, realistik tarjima (G. Gachechiladze) prinsiplariga amal qilingan holda tarjima qilina boshladi. Bu holatni, tarjima ustalari B.Pasternak, M.Loziinskiy tarjimalariga nisbat berib aytish mumkin.

Shekspir asarlarini o'zbek tiliga G.Gulom, Cho'lpon va M.Shayxzoda mavjud ruscha tarjimalardan o'girishgan bo'lsa, J.Kamol uni bevosita aslyatdan o'zbekchalashtirgan. Har uchala tarjimada o'ziga xos yutuqlar mavjud. Sababi uchala tarjimon ham bu sohada tanilgan, She'riyat bobida ham nuxtabon shoirlardir. Taniqli tarjimonshunos olim, prof. M.Xolbekovning takidlashicha uchala tarjima ham o'z davrining maxsuli, qolaversa taniqli uch so'z ustasining o'zbek tilida yaratgan asaridir.

Xo'sh, yuqoridagi tarjimalar filologik tahlil (analiz) va talqin (interpretasiya) talablariga javob bera oladimi? Bu savolga javob berish qiyin, chunki tarjimon buni tarjima qilayotganda tahlil yoki talqin uchun emas, iloji boricha asl matn mazmunini saqlab qolishga harakat qilgan holda yaratgan. Ushbu ishning navbatdagi qismida biz Shekspir asarining rus tili orqali Maqsud Shayxzoda tomonidan qilingan tarjimasini haqiqiy inglizcha matni bilan solishtirib o'rgandik. Sababi, asl matn va tarjima matnidagi yuksak badiiylik taxsinga sazovor bo'lgani holda, lingvistik talqinning bergan bahosi noto'g'ri ekanligi sezilib turadi.

II.3. “Romeo va Julyetta” asarining badiiy tarjimasi va unda qo'llanilgan badiiy va stilistik ifoda va uslub vositalari tahlili

Biz Shekspirning “Romeo va Julietta” asarinida quyidagi badiiy tarjimaning stilistik uslublarini uchratishimiz mumkin. Xususan I parda V sahnasida kinoya (irony) dan yozuvchi ustamonlik bilan quydagicha foydalangan. Julietta xizmatkoriga Romeoning kimligini, u uylanganmi yoki yo’q, agar uylangan bo’lsa o’zining qattiq afsuslanishini kinoya orqali ifodalaydi. Bunda yozuvchi drammatik kinoya uslubidan foydalanadi. Bu ochiq oydin qilingan kinoya bo’lib sahna asarini tomosha qilayotgan tomoshabin, uning to’yi arafasida vafot qilishini taxmin qilishini anglab turadi. Keling buni tarjima misolida ko’rsak: Asl matn: “Go ask his name: if he be married.

My grave is like to be my wedding bed.”.

Tarjima matni: Mutlaq bilib olgin uning ismini!

U uylangan bo’lsa, demak, ortiq men uchun
Nikoh to’yi, yotoq joyim- sovuq g’or bo’lur.

Ko’rub turganimizdek, tarjimon she’riy matnni tarjima qilishda matnning mazmuni va strukturasini butunligiicha saqlab qolgan. Bu tarjimonning eng katta yutug’i sanaladi. Chunki, faqat usta, mohir, ikkala tilni mukammal o’zlashtirilgan, sh’r yozish qobiliyatiga ega tarjimongina she’riy matnni bunday mukammallikda tarjima qila oladi. Aks holda asl matndagi badiiy stilistik uslub ham, she’rning qofiyasi ham, mazmuni ham tarjimada o’z o’rnini topmagan bo’lardi.

Boshqa stilistik uslublar singari, kinoya matnda ifodalanagan holatga qo’shimcha ma’no kasb etadi. Badiiy adabiyotdagi kinoyali gaplar va ifodalar kitobxonda qiziqish uyg’otadi. Bunda kinoya o’quvchini berilgan gap orqali aslida nima nazarda tutulganini anglash uchun bosh qotirishga va mag’zini **chaqishga** majbur qiladi. Bundan tashqari, haqiqiy hayotda biz kinoyali vaziyatlarga juda ko’p duch kelamiz. Demak kinoyaning badiiy adabiyotda shuningdek tarjimada keng qo’llanilishi uni haqiqiy, real hayotga yaqinlashtiradi.

Kinoya sifatida, Julietta Romeoning shu yerda ekanligini ko’rmasdan gapirganda quyidagicha ifodalanadi.

Asl matn: Indeed, I never shall be satisfied / With Romeo, till I behold him—
dead— (33;92:93)

Tarjima matni: Yo'q hech qachon shod bo'lmasman toki men uni,

Toki uni ko'rmaguncha ...o'lik holida.....(5;194)

Ingliz tili va adabiyotida huddi o'zbek tilidagi singari badiiy ifodada hazil tariqasida so'z o'yinidan ham foydalaniladi. Bu ingliz tilida 'pun' deb yuritiladi. So'z o'yini hazilni ifodalovchi stilistik ifoda vositasi bo'lib, bir yoki bir necha so'zning birdan ortiq ma'nosiga tayanadi lekin talaffuz o'zgarmaydi. "Romeo va Julietta" asarida biz Merkutio va Romeo o'rtasidagi dialoglarda ko'plab so'z o'yinlarini uchratishimiz mumkin.

Asl matn: Mercutio: "Nay, gentle Romeo, we must have you dance."

Romeo: "Not I, believe me. You have dancing shoes / With nimble **soles**; I have a **soul** of lead..." (33; 13)

Taarget text: O'yin tushmoq sizga darkor, aziz Romeo,

-Sizlar kiygan etiklarning **poshnasi** yengil,

Mening **qalbim** bo'lsa xuddi og'ir qo'rg'oshin,

Bu og'irlik meni yerga qoqib qo'ygandir.

Ingliz tilidagi matnda "sole" so'zi Merkutioning poshnasiga nisbatan ishlatilgan lekin Romeoning nutqida "soul" qalb ma'nosida so'z o'yini sifatida foydalanilgan.

Tarjimon so'z o'yinining manosini ochib berish uchun "Bu og'irlik meni yerga qoqib qo'ygandek" iborasidan foydalangan. Bunda tarjimon moslashtirishdan yaxshi foydalanib ma'noni saqlab qolganligini ko'rish mumkin.

Ingliz adabiyotida ko'p uchraydigan yana bir stilistik uslub bu "foreshadowing" bo'lib, bu o'zbek tilida oldindan ishora berish, bashorat qilish degan ma'noni bildiradi. Ma'lumki, o'zbek tilida bunday stilistik badiiy vosita yo'q. Shu sababli yozuvchi, shoir yoki dramaturg tomonidan foydalanilgan ushbu badiiy ifoda vositasini tarjimada aniq va maromiga yetkazib qo'llash kerak bo'ladi. Odatda bu uslub, qahramonlar nutqida navbatdagi qism yoki bo'limda endi sodir bo'ladigan voqealar haqida qisman xabar berib qo'yadi. Quyidagi misolda Benvolio Romeoning Razalinga nisbatan munosabatining yo'qolishiga shama qilishi ikkalasi o'rtasidagi suhbatda namoyon bo'ladi:

Asl matn: Benvolio: "Take thou some new infection to thy eye, / And the rank poison of the old will die" (33; 49:50)

Tarjima matni: -Mayli, kirsas ko'zimizga yangi dard mash'um

O'sha soat yo'qolgusi oldingi zaqqum! Ushbu so'zlari orqali Benvolio o'zi bilmagan holda Romeoning kelajakda Julyettani ko'rib unga oshiq bo'lib qolishi haqida bashorat qilgandek bo'ladi. Buni dramaturg "new infection" iborasi orqali ifodalasa tarjimon "yangi dard" deb, "rank poison of the old"ni esa "oldingi zaqqum" kabi so'z birikmalari bilan tarjima qiladi. Shuningdek, quyida yana bir qancha misollarni keltirish mumkin:

Asl matn: Romeo o'z gapida 'qabr' so'zini o'z halokati haqida oldindan xabar bergandek qo'llaydi. Tarjimon bu so'zni "g'or" yani jasad qo'yiladigan joy ma'nosida tarjima qilgan.

Asl matn: Taking the measure of an unmarked grave. (33;71)

Tarjima matni: Tanang bilan o'lchab qo'yar eding g'oringni. ...(5;186)

Yana bitta yorqin misol:

Asl matn: Juliet – "Give me my Romeo; and, when he shall die,

Take him and cut him out in little stars,

And he will make the face of heaven so fine

That all the world will be in love with night

And pay no worship to the garish sun." (33; 2)

Tarjima matni: Keltirib ber menga aziz yor –Romeoni!

O'lib qolsa mayda-mayda yulduzlarga bo'l!

Osmon ham, shaffof bo'lur, shu yulduzlardan,

Butun dunyo oshiq bo'lar tunning husniga,

Sho'x quyoshga topinishni hamma tark etar.

Asl matn: Oh, find him! Give this ring to my true knight, / And bid him come to take his last farewell. (33;143:144) (foreshadowing)

Tarjima matni: Topgin tezroq! Shu uzukni unga ber darrov

Unga aytki "Meni kechir" demoqchi edim

Shekspirning deyarli barcha asarlarini **metaforasiz** tasavvur qilib bo'lmaydi. Metaforo leksik-semantik stilistik uslub bo'lib, ikkita bir-biriga mutlaqo aloqasi bo'lmagan narsa yoki insonni bir-biriga o'xshatishga asoslanadi. "Romeo va Julietta" asaridagi eng mashhur metafora Romeoning Kapuletlar bog'chasidagi monologidir. U mashhur adib tomonidan quydagicha bayon qilingan:

Asl matn: Romeo: "But, soft! what light through yonder window breaks? / It is the east, and Juliet is the sun." (33;2"3)

Tarjima matni : Derazada lippillagan o'sha nur nima?

U yerdadir oltinrang qiz, Juliyetta- quyosh!(5; 155)

yerda Julietta metaforik tarzda quyoshga qiyoslanadi, vaholanki uning yuz minglab mil masofada nur taratayotgan yulduz turi bilan jismoniy jihatdan hech qanday umumiy jihati bo'lmasa ham.

Shuningdek, quyidagi suhbatda Loo'rens Romeoni ogohlantirib hech qanday natijaga erishmagach, quyidagi metaforani qo'llaydi:

Asl matn: I'll give thee **armor** to keep **off thatword** (33;55)

Tarjima matni: Men bu **so'zga** qarshi senga **shifo** beraman: (5; 186)

Asl matn: O, then I see that **madmen** have no ears. (33; 62)

Tarjima matni: Quloq degan bo'lmas ekan **devonalarda**...(5; 186)

Asl matn: The hateful mansion (33;113)

Tarjima matni: So'yla xarob qilib tashlay murdor makonni. ...(5; 188)

Jonlantirish(Personification)

Bizga ma'lumki jonlantirish odatda jonsiz jismga nisbatan jonli inson yoki hayvon hislatlarining qo'llanilishi orqali amalga oshiriladi. Jonlantirish elementlarini biz "Romeo va Julietta" asarida ham uchratishimiz mumkin. Bunga misol qilib Julietta o'z sevgilisi Romeoni Kapuletilar bog'chasiga qaragan oyna oldidagi nutqida ko'rishimiz mumkin.

Asl matn: Juliet: "For thou wilt lie upon the wings of night / Whiter than new snow on a raven's back. / Come, gentle night, come, loving, black-brow'd night" (33;18:20)

Tarjima matni: Sen kechani qanotida qorday oppoqsan,
Qora zog'ning belidagi qorlar singari,
Kelaqol sen, qoraqosh tun, qadrdonim tun,... (5; 181)

Shunisi aniq-ki, tunning qanoti bo'lmaydi shuningdek qoshi ham, lekin unga bu tarifni berish orqali dramaturg Julyettaning monologiga va tilning poetic xususiyatiga sirlilik kiritadi. Bu tunning Julyetta uchun oppoq qordek beg'ubor orzularining ushalishiga umid uchqunlari borligini ifodalash maqsadida qo'llanilgan. Tunning qoshlari but un sharpasining olamga yoyilishiga nisbatan qo'llanilgan ifoda vositasidir.

Frayer Lourens Romeoga qarab gap boshlar ekan jonlantirishdan foydalanib o'z fikrlarini quyidagicha ifodalaydi. "parts' affliction", "art wedded calamity", tarjimada "xondonlar g'azab xusumati", "nikoh tugashi" kabi ifodalanadi.

Asl matn: Affliction is enamour'd of thy parts,
And thou art wedded to calamity. (33;4)

Tarjima matni : Xonadonlar orasida, g'azab husumat
Shu nikohing tufaylidan tugagay shoyad!

Shuningdek, ushbu sahnada Romeo nutqida ham jonlantirish ifodalarini korishimiz mumkin.

Asl matn: What **sorrow craves** acquaintance at **my hand** (33;5)

Tarjima matni: Shu gunohkor qo'lim bilan tegdim qo'linga.

Oksymoron bu yana bir leksik stilistik uslub bo'lib, bunda lug'aviy jihatdan ma'nosi bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikkita so'zning birga qo'llanilishi orqali, his tuyg'ular, kechinmalar yoki hayrat ba'zan maqtoovning ifodalanishida o'z aksini topadi. Tadqiqot obyekti bo'lan asarimizda, Amakivachchasi Tibaltni aynan Romeo o'ldirganini endigina bilib qolganidagi holatini yozuvchi oksyumoronni ustalik bilan qo'llash orqali yoritib bergan. Julyetta o'z oilasiga jafo yetkazgan sevgilisiga nisbatan o'z g'azabini quyidagicha ifodalaydi: Asl matn:

Juliet: "Beautiful tyrant! fiend angelical!" (33;77) Tarjima matni: Oh, farishta yuzli

:go'zal sitamkor! ((5; 183)Julyetta Romeoga nisbatan"Beautiful tyrant" yani "Farishta yuzli iblis" deb murojaat qilar ekan, oksyumoron uslubi qilgan ishi iblisga xosligi, lekin iblisning ishi hech qachon go'zal bo'lmasligini eslatadi.

Asl matn: Poor living corpse, closed in a dead man's tomb! (33;29)

Tarjima matni: Tiriklayin bechora qiz yotar tobutda ... (5;216)

Asl matn: "O brawling love! O loving hate! . . .

O heavy lightness! serious vanity!

Misshapen chaos of well-seeming forms!

Feather of lead, bright smoke, cold fire, sick health!

Still-waking sleep, that is not what it is!

Tarjima matni: E g'arazli ishqu savdo, e nozanin yov!

E borliqlar, e hechliklar, e nur va zulmat!

Osonlik yo mashaqqatlik, tezlik va savlat,

Ko'rinishda go'zal asli parishon suvrat:

Qo'rg'oshin pat,ravshan tutun, sovuq alanga,

Sog'lom kasal,yo yuquda uxlagan bedor

Sevilmasdan bir sevgiga bo'ldim giriftor!

(5;136)

Paradoks yana bir stilistik ifoda vositasi bo'lib u ham bir-birini rad qiladigan ikkita fikrga asoslanadi. Agar chuqurroq tahlil qilinsa, bu ikki tarkibiy qismning bir-biri bilan moslashishi amri maholdir."Romeo va Julyetta" asarda Julyetta Romeoni qanday ta'riflaganiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, uning bildirgan fikrlari haqiqiy paradoks deb hisoblash mumkin:

Asl matn: Juliet: "O serpent heart, hid with a flowering face!" (33; 75)

Tarjima matni: Chehrasi- gul, dili esa ilonning dili!

Lekin Julyetta shuni biladiki, Romeoning dili ilon emas, yani unga nisbatan yomonligi yo'q chehrasi guldek chiroyli emasligini ham,uning bu tasvir ifodasini qo'llashiga sabab, u jonidan ortiq yaxshi ko'rgan insoni ayni paytda o'z qarindoshining qotili ekanligi paradoks tushunchlar ekanligini ifodalashdan iborat.

Shekspirning “Romeo va Julyetta” asarini badiiy ifodalarsiz bu darajada dunyoga mashxur bo’lib ketishini tasavvur qilish qiyin. Albatta, asarni dunyoga tanitishda tarjimonlarning xizmatini alohida taakidlash lozim. Chunki eng mukammal tarjimasiz har qanday shoh asar ham tilni tushunmaydigan tomoshabin tomonidan yetarlicha baholanmasligi mumkin. Undagi stilistik uslub va badiiy vositalar tarjimada eng muqobil varyantini topmasa asar qahramonining nutqi jozibasini yo’qotadi. Shekspirning “Romeo va Julyetta” tragedyasi sheriy uslubda yozilgan bo’lib bu tarjimonga ikki baravar ko’p mas’ulyat yuklagan. Xususan, asarning III parda 3 sahnasida bir qancha badiiy ifoda vositalari qo’llanilgan.:

Tasviriy ifoda vositalari va stilistik uslublar tilning bezagi deb bejizga aytilmagan. Figurativ ma’no bu leksik va semantik ifodaning mukammaligi uchun xizmat qiladi.

Romeo Frayer Lo’reysga quydagi nut birliklaridan foydalangan holda o’z dilidagilarni aytadi:

Asl matn: Calling death ‘banishment,’
Thou cut'st my head off with a golden axe
And smiles upon the stroke that murders me. (33;23:25)

Tarjima matni: Badarg’aning o’zi xuddi o’lim demakdir,
Shu gap o’zi-oltin chopqi, shu chopqi bilan,
Boshim kesib o’ldirasan- o’zing kulasan (5;185)

Alliteratsya asl matnda ko’p qo’llanilgan yana bir uslub bo’lib, bu muayyan tovushlarning ma’lum qofiya va vaznda takrorlanishiga asoslanadi. Asarning III pardasining I sahnasi, 10 va 12 qatorida, d va b undosh harflarining so’z boshida takrorlanishi alleteratsya tarzida qo’llanilgan.

Asl matn: What less than **dooms day** is the Prince's **doom**?
Not **body's** death, **but body's banishment**.

Shuningdek 37 qatorda ham w harfi takrorlanib alleteratsya hosil qilgan.

On the **white wonder** of dear Juliet's hand

Ushbu sahnaning 45 qatorida esa H harfi takrorlanib alleteratsya hosil qilgan

Asl matn: Howling attends it. How hast thou the heart

Alleteratsya bu tarjimada deyarli saqlanib qolmaydigan uslub bo'lib, tarjimon aynan shu harfni emas balki boshqa bir harfni takrorlab tarjimaga o'zgartirish kiritishi yani transformatsya hosil qilishi mumkin: Jumladan, "romeo va Julyetta" asarining tarjimasida ham quyidagi alleteratsyalarni uchratishimiz mumkin.

Quyosh botsa yerga qo'nar shudring-shabnamlar,

Ammo mening jiyanimning botgan umrini

Yomg'ir, yog'in yuvayapti, shunga yig'layman.

(5;195)

Mubolag'a (Hyperbole) bu emotsional ma'noni ifodalashning yana bir uslubi bo'lib, bunda gapiruvchi bir jihatning ko'rinishi kichik bo'lsada nihoyatda katta ahamiyatga ega ekanligi yoki gapiruvchi uchun katta ta'siri borligini ifodalaydi. Xususan asarda Romeoning Veronadan badarg'a qilinishi uning uchun katta salbiy ta'sirga ega ekanligini ifodalashda dramaturg ham tarjimon ham mubolag'adan foydalangan:

Asl matn: **There is no world** without Verona walls (33;8)

Tarjima matni: Veronadan tashqarida **hech bir dunyo yo'q:**

Murojaat so'zlari (Apostrophe) odatda gapiruvchining nutqi qaratilgan shaxsga nisbatan ishlatiladigan so'zlar bo'lib, bunda ko'pincha ot, olmosh, undov va his-hayajon so'zlar ko'proq qo'llaniladi. Quyidagi asardan keltirilgan parchada, undov so'z(interjection) murojaat vazifasini bajargan: Frayer Lo'rens Romeoni bo'layotgan ishlardan xabardor qilish maqsadida unga pand nasihat qilsa, bunga Romeoning o'zini tutushidan u norozi ekanligini ifodalash maqsadida, yo'zuvchi murojaatdan foydalanadi:

Asl matn: Oh, deadly sin! Oh, rude unthankfulness! (33; 25)

Tarjima matni: Voy odamning to'ymas nafsi, Voy ko'rnamaklik!

(5;185)

Source text: O Romeo, Romeo! Wherefore art thou Romeo? (33;33) apostrophe

Tarjima matni: Oh, Romeo. Nega axir sen Romeosan?

Parallelizm bu ikkita ish-hara katning teng takrorlanishiga asoslanadigan va odatdama'noni kuchaytirishga xizmat qiladiagna badiiy stilistik vositadir."Romeo

va Julietta” asarida biz bir qancha parallellizmlarga duch kelishimiz mumkin. Masalan, Julyettadan Romeoga xabar olib kelgan xizmatkor, bekasini ahvolini tasvirlashda quydagi parallelizmdan foydalanadi:

Asl matn: Blubbering and weeping, weeping and blubbering (33;91)

Tarjima matni: Xuddi shunday yotib yig’lar, ho’ngrar va ingrar

Shuningdek badiiy matnning tarjimasida ham ushbu stilistik uslub ekvivalent yordamida saqlanib qolgan.

O’xshatish(Simile) badiiy stilistik vosita bo’lib, ingliz va o’zbek tillarida vazifasi jihatdan bir-biriga o’xshaydi. Ingliz tilida o’xshatish like, as, simile, alike so’zlari yordamida ifodalanadi. O’zbek tilida esa go’yo, singari, xuddi ...dek kabi vositalar yordamida ifodalanadi. O’xshatish badiiy asarning xususiyati, undagi personajlarning xarakteri, tashqi qiyofasi yoki tabiat manzarasini tasvirlashga nisbatan ishlatiladi. Jumladan “Romeo va Julietta” asarida yozuvchi Julyettaning zahar ichishdagi holatini o’xshatish orqali yoritib beradi. Buni quydagi jumlada ko’rish mumkin.

Asl matn: But, **like a** misbhav'd and sullen wench,

Thou pout'st upon thy fortune and thy love.(33;149:150)

Tarjima matni: Menga kuch ber, eh muhabbat bunda najot bor.

(5;202)

Asl matn: Fie, fie, thou shamest thy shape, thy love, thy wit,

Which, **like a** usurer, abound'st in all, (33;128-129)

Tarjima matni: Qutilarsan, shu **yo’sinda** sharmandalikdan:

Bashartiki, na yengiltak havo-yu havas

Na ayollar qo’rqoqligi yengmasa seni.(5;202)

8. These violent delights have violent ends / And in their triumph die, like fire and powder, / Which, as they kiss, consume... (33;9-11) simile

To’qinlangan shodlik keti to’lqinli bo’lur,

Shodliklarning g’alabasi ularga o’lim,

O’q dori-yu, o’t birlashgan kabi bular ham,

Kulib ketar bir bo’sada, bitta bo’sada. (O’xshatish)

(5; 173)

Allusya navbatdagi badiiy vosita bo'lib, lotin tilidagi *luderefe'lidan olingan bo'lib, lusus est* inglizcha "to play with, jest.", yani mazmuninni tahlil qilish ma'nosini bildiradi. Mazmun bilan gapiruvchining ham tinglovchining ham tanish bo'lishi shuningdek madaniy tarzda ifodalaanishiga asoslanadi. Ted Kohensning ta'kidlashicha ko'pgina hazillarning asosida o'zaro ma'noni anglash va uni ifodalash yani allusya yotadi. Umumiy ana'naviy tarzda mazmun, alluziya badiiy termin bo'lib, u filmlarda yoki baddiy san'atda ko'p qo'llaniladi. Adabiyotda allusya kitobxon allaqachon bilib olgan bilimlarini matnda muhokama qilinayotgan vaziyat bilan bog'lash uchun ishlatiladi. Xususan, biz tahlil qilayotgan asarda Shekspir alluzyadan ham foydalangan, buni quyidagi misolda ko'rishimiz mumkin.

Asl matn: Therefore do nimble-pinioned doves draw love, / And therefore hath the wind-swift Cupid wings....

Chunki juda ayon edi, ilk dilbaringga
O'qimasdan yodlaganingishq kitobini,
Shuning uchun ishonmasdi sening gapingga!
O'tgan ishga salovat de! Yurgin qalandar,
Senga yordam bermoq kerak, imkon bor qadar,
Xonadonlar o'rtasida g'azab-xusumat
Shu nikohningtufaylidir tugagay shoyad!

Ramz(Imagery), badiiy matnda, muallifning aniqva tasviriy tilda o'z ishiga qo'shimcha izoh kiritishidir. Bu kitobxonga asarning mohiyatini tasavvur qilishiga yordam beradi. Odatda ramzning eng yuqori darajadagi ta'rifi bo'lib metaforaning qo'llanilishi ko'rinadi.

- Ramzli tasvir(Visual imagery) grafika, mazara, rasm va qarashni o'z ichiga oladi.
- Tinglash mumkin bo'lgan belgilar(Auditory imagery) tovush, shovqin, musiqa, yoki eshitish mumkin bo'lgan so'z yoki iboralar. Bunday ramzlarda yozma matnda onomatopya- yani tovushga taqlid shaklida beriladi.

- Hidni anglatuvchi ramzlar(Olfactory imagery) turli xil hid, bo'y, iforni anglatuvchi so'zlar bo'lib matnda qo'llaniladi.
- Ta'mni anglatuvchi ramzlar (Gustatory imagery) ovqat ta'mi yoki mazasini anglatuvchi so'zlardan iborat. pertains to flavors or the sense of taste.
- Harakat yoki Turtki(Tactile imagery) ramzlari,bular jismoniy harakat va holatni anglatuvchi so'zlar bo'lib matnni boyitadi va qahramonning holatiga aniqlik kiritadi.Romeo va Julietta asarida tarjimon asl matndagi ramzlarni quyidagicha tarjima qiliadi.

Asl matn: With purple fountains **issuing** from your veins, / On pain of **torture**, from those bloody hands / **Throw** your mistempered weapons to the ground. / (33;79:81) imagery

Tarjima matni: Tomirlarda **oqqan** alvon buloqlar ila

So'ndirasiz adovatning qahrin, olovin,

Men **jazolash havfi** bilan deyman sizlarga:

Qurollarni **yerga tashlang** qonli qo'llardan!

Ko'rib turganimizdek tarjima matnida nafaqat ramzlar balki boshqa badiiy ifoda vositalarining ham tarjimasi o'z aksini topgan.Masalan, "veins pyrple fountais"- "Tomirdagi alvon buloqlar"(metafora), "pain of torture"- "jazolash havfi"(metanomiya), "bloody hands"- "qonli qo'llar" (metonimiya)

XULOSA

Ushbu bitiruv malakaviy ishiga yakun yasab xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, hech bir davrda tarjimaga murojaat qilinmasdan qolgan emas.

Tarjima insoniyat tarixida do'stlik ko'prigi bo'lishdan tashqari, madaniyat va ma'rifat sari ochilgan keng yo'ldir. Tarjima qiyin, ammo maroqli san'atdir. Biz uchun yot bo'lgan tilda yaratilgan badiiy asarni o'z tilimizga o'girish, badiiy fikr yaratish naqadar zavqli.

Ma'lumki, badiiy tarjima bevosita yoki bilvosita amalga oshiriladi. Shu paytgacha vujudga kelgan tarjimalar zikr etilgan vositalar orkali o'z kitobxoniga yetib keldi. Endilikda o'zbek adabiyoti namoyondalarning bevosita, ingliz, nemis va fransuz adiblarining asarlari bevosita tarjima qilinadi. Chunki mamalakatimizda chet tillarni o'rganishga ochib berilgan yo'l kelajakda albatta o'z samarasini beradi. Keyingi bir necha yil ichida bevosita chet tillardan qilingan tarjimalar xam paydo bo'ldi. Xattoki ayrim shoirlarimiz asl nusxadan tarjima qilish maqsadida ingliz va nemis tillarini o'rganishga kirishdi. Ularning bunday yo'l tutishi maqtovga arziydigina emas, balki tarjima sifatining yuqori pog'onaga ko'tarilishi uchun qo'yilgan ilk qadamlar desak mubolag'a bo'lmaydi.

Aksariyat tarjimalarning rus tili orqali vujudga kelganligi xammamizga ayon, bu holni davr va extiyoj taqozosi deb tushunib G'ofur G'ulom, Maqsud Shayxzoda, Mirtemir, Hamid Olimjon va shu kabi buyuk o'zbek adiblari yaratgan tarjimalarga nisbatan rus tili orqali qilingan tarjima, yoki sifati past, ekvivalentlar rus tili ta'siri ostida qolgan deb baho berib, tarjimonlarimizning mehnatiga yetarli baho bermaslik, bizningcha adabiyotimizning o'tmishiga bepisandlik bilan qarash bilan tengdir. Chunki agar kitobxon sifatida e'tibor beradigan bo'lsak, o'sha biz yuqorida aytib o'tgan Shekspirning tanlangan asarlar to'plamining xotima qismida ham, ushbu tanlangan asarlar to'plami loyiha tashkilotchilari bo'lgan M.Mahmudov va O.Abdullayevlarning fikrlarni bayon qilsak: "Shekspir ijodining oltin sahifasi bo'lgan "Hamlet"ni tarjima qilish sharafiga adabiyotimizning yana birulkan namoyondasi, zabasdast shoir va drammaturg Maqsud Shayxzoda zimmasiga tushdi. U "Hamlet"ni ham, Shekspiring yana bir ulkan asari"Romeo

va Julyetta” fojiasini ham katta mahorat va yuksak ehtiros bilan tarjima qildi.Ular Shekspir ijodidagi yuksak g’oyalar va o’lmas, bashariy obrazlar bilan sizlarni tanishtirishdan tashqari o’zbek tarjimachilik maktabiga xos an’analarni, tarjima sana’ti mahoratini yaqqol tasavvur etishingiz, ularni keyingi tarjimalar bilan qiyoslab ko’rishingiz uchun ham katta imkoniyatlar ochib beradi”. Chet tili mutaxasisi xorijiy tilni bilsada, o’zbek adabiy tilini me’yorida bilmaydi, bilganlari esa ijodkorlik iqtidoridan maxrum. Shu boisdan ayrim kishilarning bilvosita tarjimadan voz kechish kerak degan fikrlariga ham qo’shilib bo’lmaydi.

Tarjima badiiy ijodning eng mashaqqatli soxasi bo’lib, u kishidan bag’oyat katta bilim egasi bo’lishdan tashqari, yozuvchilik yoki shoirlik iqtidoriga molik bo’lishni talab qiladi. U asarini o’girayotgan yozuvchi yoki shoir bilan bellasha oladigan san’atkor darajasiga ko’tarilmog’i lozim, aks xolda u yaratgan tarjima nursiz va befayz bulib, xech kimga zavk bag’ishlamaydi, umri qisqa bo’ladi. Taniqli tarjimashunos olim G’aybullay Salomov yozganidek, «Tilni tilga ulaganda emas, balki dilni dilga payvand etganda tarjima paydo bo’ladi».

Tarjimon asar tilini bilmasa va uning taglama tarjimalari yoki bilvosita qilingan tarjimalari nusxalaridan foydalanib tarjima qilsa, asliyat matni va tarjimaning mosligi borasidagi muammolar yanada ko’payadi. Asl nusxani boshqa nusxalar vositasida tarjima qilishda asarning mazmun va shakli o’zgaradi va bu muallifning individual uslubini yo’qolishiga va ko’plab boshqa xatoliklarga olib keladi. Tarjimada asarning o’ziga xosligini tiklash muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun, davrlar xarakterini, muallifning badiiy ijodiy uslubini asar qahramonlari nutqini tarjimon imkon boricha to’g’ridan-to’g’ri asl nusxadan tarjima qilishi kerak.

Tarjimaga filologik taxlil nuqtai nazaridan yondashish xorijiy tildagi matnni teran anglash va tarjima jarayonida asl nusxa matnidagi so’z va iboralarning tagmazmunini tarjima tilida qayta yoritishda qo’l keluvchi usullardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. – T., 2008.
2. Karimov I.A. “Barkamol avlod orzusi”. - T.: Sharq, NMK, 1999, 184 bet.
3. Bushy A. Rus tilida o’girilgan o’zbek nasrida sharqqa xos musiqiylik poetikasi . Filologiya VIII. – Samarqand: Sam DU, 2007. – B. 15-22.
4. Humbolt V. Tillarning adabiyotga ta’siri va ma’naviy takomil masalalari Rus tilidan Ibodulla Mirzayev tarjimasi Filologiya.5. – Samarqand: SAM DU, 2003. –B. 3-8.
5. M.Mahmudov va O.Abdullayev. “Uilyam Shekspir.Tanlangan asarlar” M.Shayxzoda tarjimasi.SMI-ASIA.Toshkent,2009.
6. Rasulova S. U.Villiyam shekspirning hamlet, daniya shaxzodasi tragediyasining o’zbek tiliga bilvosita va bevosita amalga oshirilgan tarjimasini qiyosiy tahlil qilish.Magistrlik dissertatsiyasi.Samarqand, 2014
7. Salomov G’. Tarjima nazariyasiga kirish. O’qituvchi,T., 1978. B.149-150, 182
8. Salomov G’. Tarjima nazariyasi asoslari.Toshkent, 1983.
9. Salomov G’. ”Do’sstlik ko’priklari”Toshkent. 1979, 3-6 b.
10. Salomov G’. Til va tarjima O’ZSSR “Fan”nashriyoti. - Toshkent., 1966.
11. Salomov G’. Tarjima nazariya asoslari Toshkent. “O’qituvchi nashriyoti”,1978.
12. Sulaymonova D.A., Xamnova F.R. She’r va tarjima. Samarqand, 2009.
13. Sulaymonova F. Sahekspir O’zbekistonda, O’ZSSR, “Fan” nashriyoti, - T., 1978.
14. Tarjima san’ati. Maqolalar to’plami. - Toshkent, G’.G’ulomov nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1973.
15. Tarjima san’ati. Maqolalar to’plami. G’.G’ulomov nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. - T, 1976.
- 16.Tarjima san’ati. Maqolalar to’plami. - Toshkent, G’.G’ulomov nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1980.

17. Tarjima san'ati G'.G'ulomov nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. - T., 1985
18. Turniyozov. N . O'zbek derivatologiyasining bugungi ahvoli va istiqbol taraqqiyoti haqida Til taraqqiyotining qonuniyatlari. – Samarqand: SamDChTI, 2009. – B-3.
19. Xolbekov M.N. “Shekspir bepoyon”.- T, O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2008.
20. Xudoyorova D.-Navoiy DPI “Badiiy tarjimada filologik taxlil masalasi”
21. O'zbekistonda badiiy tarjima tarixi. - Toshkent, O'ZSSR, “Fan” nashriyoti, 1985.
22. O'zbekistonda tarjimachilik. - T, O'ZSSR, “Fan” nashriyoti, 1988.
23. Sharofiddinov O. Maqsud Shayxzoda. O'zbek adabiyoti tarixi ocherki (2 jildlik).-T.: “Fan”, 2-jild, 1962.
24. Бушуй А.М. Идиоэтническая семантика как социально-психологическая реальность Филология.5. – Самарканд: Сам ГУ, 2003. – С. 23-29.
25. Бушуй А.М. Сущность языка как проблема общей лингвистики. Тексты лекций. – Самарканд: Сам ГИИЯ, 2004. – 92с.
26. Бушуй Т.А. Лингвистика поэтической речи в идиолектическом рассмотрении Бадий матн поэтикаси. – Самарканд, 2002. – С. 10-12.
27. Гальперин И.Р. Некоторые типологические особенности литературного английского языка XVI века Типология германских литературных языков. – М., 1976. – С. 80-112.
28. Berry R. The Shakespearean metaphor: Studies in language and form. – London; Basinstoke: Macmillan, 1998. – XI, P. 1 28.
29. Blake N.F. The language of Shakespeare. – Basingstoke; London: Macmillan, 1993. – X, 154p. (The language of lit.)
30. Curren-Aquino D.T. Self-naming of Shakespeare's early plays Names. – New York, 1987. – Vol. 35. - № s. – P. 147-163.
31. Nero R. Shakespeare's other language. – New York; London: Methuen, 1997. – VI, P. 170.

32. Shakespeare W. Romeo and Juliet. – London: Constable, 1994. – 194 p.

33. The Complete Works of William Shakespeare. – New York: The University Society, 1899. – 3004 p.

2. Lug'atlar

1. Collins Dictionary of English Language. – London; Glasgoe, 1999. – 1690 p.

2. Dictionary of English Colloquial Idioms. - / Wood F.T. and Hill R. – London: Papermark, 1990. – 384 p.

3. Fowler H. W. A dictionary of modern English usage. – 2 ed./ Rev. by Cower E. – Oxford; New York: Oxford Univ. Press, 1996. – 725 p.

4. Hornby A.S. Oxford student's dictionary of Content English. – Oxford: OxfordUniversity press, 1984. – 769 p.

Elektron resurslar

1. www.ziyonet.uz

2. www.wikipedia.uz

3. http://www.elib.bsu.by/bitstream/123456789/46792/1/holevinskaya_2011_sbornik7_tom2.pdf

4. <http://www.dissercat.com/content/metaforicheskoe-modelirovanie-gendernoi-oppozitsii-v-russkom-yazyke>

5. <http://www.lib.csu.ru/vch/210/011.pdf>

6. <http://www.twirpx.com/file/443880>

7. <http://www.livelib.ru/book/1000535315>

8. <http://www.lib.tsu.ru/mminfo/000349304/10/image/10-022.pdf>